Davlat bosh islohotchi sifatida har qanday mamlakatni rivojlantirish yo'lida islohotlarni amalga oshirar èkan, avvalo, inson manfaatini birinchi o'ring'a qo'yadi. Inson èsa jamiyatda asosiy fuqarolik munosabatlarida iste'molchi sifatida gavdalanzdi. Ayian shu holat ham mamlakatimiz Bosh qonunida o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida ta'kidlanishicha, davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faolmyat, tadbirkorlik va mehnat qilish èrkinligini, barcha mulk shakllarining tsngligini va huquqiy jihatdak bab-baravar muhofaza ètilishini kafolatdaydi.

Iste'molchilarning huquqlarini himoya qiluvchi qonun hujjatlari orasida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi markaziy o'rinlardan birini ègallaydi. Zero, istse'molchi va ularning huquqlarini himoya qilish fuqarolik-huquqiy munosabat bo'lib, uning o'rganish predmeti hisoblanadi. Fuqarolik kodeksi asosan mulkiy va shaxsiy-nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Fuqaro iste'-molchi sifatida ijtimoii munosabatga kirishganida u mulkiy mazmun kasb ètadi.

Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ma'muriy hamda; jinoiy javobgarlik belgilaigan. Bu belgilangan javobgarlik choralari iste'molchilarning xuquqlariii himoya qilishga to'sqinlik qiluvchi sodir ètiladigan huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik darajasiga bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy xavflilik darajasi katta bo'lmagan huquqbuzarlik ma'muriy

javobgarlikka, ijtimoiy xavfli qilmishlar èsa jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 164-moddasi (savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish), 165-moddasi (xaridor yoki buyurtmachini aldash), 166-moddasi (xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning sgtirtli ichimliklar, oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat mollarini, ularning sifatini va ishlab chiqarish markasini tasdiqlaydigan qujjatlarsiz sotish yoki sotish maqsadila olish), 178-moddasi (monopoliyaga qarshi qaratilgan faoliyatni amalga oshiruvchi vakolatli organga va iste'molchilarning huquq-larini himoya qiluvchi organlarga axborot taqdim ètmaslik yoki atayin noto'g'ri ma'lumotlar taqdim ètish) va qator boshqa moddalari bevosita iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.

### 3. Iste'molchilar xuquqlarini himoya qilishda chakana oldi-sotdi shartnomasini mohiyati.

Oldi-sotdi shartnomalarining ayrim turlari to'g'risidagi qoidalar, shuningdek ayrim turdagi tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilish qoidalari O'zbekiston Rspublikasi Hukumati tomonidai tasdiqpanadi. (O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 5 apreldagi 364-II Qonuni tahriridagi modda matni)

1. Sharhlanayotgan ushbu normada oldi-sotdi shartnomalarning ayrim turlari qoidalari, shuningdek, ayrim tovarlar oldi-sotdisi qoidalari O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilab qo'yshshshi xaqida so'z (FKning 386—424-moddalari).

2. Oldi-sotdi shartnomalari tizimi amaldagi FKda o'z mujassamini tolgan (FKning 29-bobi). Unla oldi-soti to'g'risidagi umumiy qoidalar belgilab qo'yilgap. FKda oldi sotdi shartnomasining quyidagi turlari nazarda tutidgan-

a) chakana oldi-sotdi (FKning 425—43b-moddalari);

b) mahsulot etkazib berish;

v) tovarlar etkazib berish bo'yicha davlat kontrakti;

g) kontraktatsiya;

d) ènergiya ta'minoti (FKning 468—478-moddalari); z) ko'chmas mulkni sotish;

e) korxonani sotish

Shuningdek, amaldagi qonunchilikda oldi-sotdiningyana quyidagi o'ziga xos fuqarolik-huquqiy shartnomalari farqlanadi:

— intellektual mulk ob'ektlarining oldi-sotdisi;

— ulgurji savdo, shu jumladan, birjalar orqali oldi-sotdi;

— èlektrop savdo-tijorat.

Yuqoridagi shartnomalar turlari ichida mahsulot etkazib berish shartnomasi, kontraktatsiya shartnomasi, korxonalar oldi-sotdisi, ulgurji oldi-sotdi, birjalar orqali amalga oshiraladigan oldi-sotdi shartnomalarida faqat tadbirkorlik sub'sktlari qatnashadi, iste'molchi ishtirok ètmaydi, shu sababli bunday shartnomaviy munosabatlarga iste'molchilarning huqukdarini ximoya qilish to'g'risidagi qonun qo'llanilmaydi.

Oldi-sotdi shartnomalarining ko'pgina turlari FKda, notariat to'g'risidagi qonun, iste'molchilarping huquqin himoya qilish to'g'risidagi qonun, uy-joy kodeksi va boshqa qonunlarda tartibga solingan. Biroq shartnomalarning har biri o'z xususiyatlariga èga, shu sababli ushbu xususiyatlg yanada batafsilroq tartibga solinishi kerak. O'zbekisto Respublikasi Vazirlar Mahkamasi FKning, boshqa qoIU^ larning amalga oshirilishini, ijrosini ta'minlash maqsadida oldi-sotdi shartnomalarining ayrim turlari bo'yicha qoidalarni belgilash vakolatiga èga. Bunday qoidalar jumlasiga quyidagilar kiradi:

— O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to'g'risidagi 2003 yil 13 fevralda qabul qilgan 75-sonli qarori;

— Vazirlar Mahkamasiping 2002 yil 27 noyabrda qabul kilgan «Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan savdo faoliyatini ro'yxatga olish va amalga oshirishni soddalashtirish choralari to'g'risidagi» 407-sonli qarori;

— Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 dekabrda qabul qilgan «O'zbskiston Respublikasi qududiga iste'mol tovarlari olib kirishni takomillashtirish bo'yicha choralarni amalga otshirish to'g'risida»gi 427- sonli qarori;

— Vazirlar Mahkamasining «Nooziq-ovqat iste'mol tovarlari savdosini takomillashtirish choralari to'g'risida»gi 2003 yil 28 sholda qabul qilgan 330-sonli qarori va h.k.

3. Ayrim turdagi tovarlarni sotish qoidalari amapdagi FKda, ayrim qonunlarda va Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 13 fevraldagi 75 sonli qaroriga 1-ilova «O'zbskiston Respublikasida chakana savdo qoidalari» da o'z ifodasini topgan.

Iste'molchilar xukuqlarini himoya qilishda ayrim turdagi tovarlar oldi-sotdisi qoidalari alohida belgilab qo'yilishi muhim ahamiyatga èga. Ushbu maxsus qoidalar orqali iste'molchilarning asosiy huquqlari to'laqonli muhofaza ètilishi ta'minlanadi.

**Maxsus qoidalar alohida tovarlarning quyidagi turlari bo'yicha belgilangan:**

1.Oziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo qilish xususiyatlari (qoidalarning 37—56-bandlari);

2.Alkogolli ichimliklar bilan chakana savdo qilish xususiyatlari (qoidalarning 57—67-bandlari);

3- Meva-sabzavot mahsulotlari bilan chakana savdo qilish xususiyatlari (qoidalarning 68—91-bandlari);

4. Qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar bilan chakana savdo qilish xususiyatlari qoidalarning 92-106-bandlari);

5. Qimmatbaho metallar, toshlar va ulardan yasalgan buyumlarni aholidan sotib oluvchi punktlarning ish qoidalari xususiyatlari (qoidalarning 107—118-bandlari);

6. O’zbekiston Respublikasi hududida yangi avtotransport. vositalarini chakana sotish xususiyatlari (qoidalarning 119-135-bandlari);

7. Vositachilik (komission) savdosi xususiyatlari (qoidalarning 136—156-bandlari);

8. Tuqimachilik, trikotaj, tikuv buyumlari, mo’ynali tovarlar va poyabzal sotish xususiyatlari (qoidalarnivd 157—164-bandlari);

9. Texnik jihatdan murakkab maishiy tovarlarni sotish xususiyatlari (qoidalarning 165— 170-bandlari);

10. Attorlik-pardoz tovarlarini sotish xususiyatlari (qoidalarning 171—174-bandlari);

11. Hayvonlar va o’simliklarni sotish xususiyatlari (qoilalarning 175—177-bandlari);

12. Maishiy kimyo tovarlarini sotish xususiyatlari (qoidalarning 178—181-bandlari);

13. Pestitsidlar va agroximikatlarni sotish xususiyatlari (qoidalarning 182—186-bandlari);

14. Dori-darmonlar va tibbiy buyumlarni sotish xususiyatlari (qoidalarning 187-bandi).

Mutlaq huqukdar oldi-sotdisida sotuvchi mutlaqhuquqni amalga oshirish bo’yicha barcha texnik hujjatlar, axborot-ma’lumotlarni sotib oluvchiga topshiradi, ayni vaqtda sotuvchi mutlaq huquqni uchinchi shaxslar huquqlaridan (liienziya asosida olgan huquqlardan) ham ozod qilib topshirishi lozim, demak, FKning 393-moddasi mantiqan olganda to’la amal qiladi. Ushbu shartnomada sotuvchi zimma-siga yana bir majburiyat yuklanadi: u intsllektual mulk ob’ektidan bundan keyin o’zi hsch qanday foydalanishga urinmasligi, uchinchi shaxslarga ham ob’ektdan foyda-lanishga imkon beruvchi hech qanday hujjat-axborotlar bermasligi shart. Ushbu majburiyat shartnomada o’z ifodasini topishi lozim bo’lgan muhim shart hisoblanadi, chunki garchi mutlaq huquqpi sotuvchi sotib oluvchiga o’tkazsa qam ob’ektp doir bilim-axborotlarni o’z xotirasidan o’chirib tavxlay olmaydi, demak ushbu ob’ektdan foydalapish bo’yicha deyarli barcha imkoniyatlar unda amalda saqlanib qoladi.

Oldi-sotdi amalga oshirilganda iste’molchiga kassa yoki' tovar cheki beriladi. Tovarni kassa yoki tovar chekini bermasdan sotish taqiklanadi.

1. Sharxlanayotgan normalarda iste’molchi tomonidan sotib olingan tovar, uning uchun bajarilgan ish, unga ko’rsatil-gan xizmat uchun u tomonidan tovar ishlab chiqaruvchi (sotuvchi), ish bajaruvchi, xizmat ko’rsatuvchiga haq to’lash shakli qamda tartibi haqida so’z boradi.

2. Umumiy qoida bo’yicha bozor munosabatlari tizimida iste’molchi manfaatlarini qanoatlantirish(tovarlar, ishlar, xizmatlarga nisbatap) haq èvaziga amalga oshiri-ladi.

Tovar(ish, xizmat)lar uchun haq to’lash shakli hamda tartibi iste’molchi bilan sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) o’rtasilagi kelishuvga binoan belgilanadi.

Haq to’lash shakli quyidagilar hisoblanadi:

— naqd pulga;

— hisob raqamiga o’tkazish yo’li bilan.

To’lovlar so’mda, chet èl valyutasida amalga oshirilishi mumkin. To’lovni amalga oshirishda pullar qimmatbaho qog’ozlar (cheklar), plastik kartochkalar (kredit kartochka-lar)dan foylalanish mumkin.

**Haq to’lash tartibi ham quyidagi turlarga bo’linadi:**

1. Oldindan haqto’lash;
2. Muqobil ravishda haq to’lash;
3. Qismlarga bo’lib haqto’lash;
4. Kechiktirilgan holda haqto’lash;
5. Hisob raqamiga o’tkazish yo’li bilan haq to’lash.

Shartnoma bo’yicha taraf o’z burchlarini bajarganlig uchun haq olish yoki unga boshqa muqobil to’lov to’lash lozim bo’lsa, bunday shartnoma haq to’lash èvaziga shartnoma bo’ladi.

Shartnomaviy bahoda shartnomani bajarganlik uchun flarning kelishuvi bilan belgilangan bahoda haq di. Bozor sharoitlarida iste’molchi va ishlab chiqarish (sotuvchi, ijrochi) o’rtasidagi shartnomaviy baholar taraflarniig o’zaro kelishuvi asosida belgilanadi.

Belgilangan tartibda hisob-kitoblarda cheklardan foydalanish mumkin. Chek beruvchining chekda ko’rsatilgan summani chek saqlovchiga to’lash haqida bankka hech qanday shart qo’yilmagan topshirig’i mavjud bo’lgan qimmatlya qog’ozga chek deyiladi. Chek bilan hisob-kitob qilinganida faqat chek beruvchining chek berish yo’li bilan tasarrUR ètishga haqoi bo’lgan mablag’lari saqlanayotgan bankgina chek bo’yicha pul to’lovchi qilib belgilanishi mumkin. Chek berilishi bajarish uchun chek berilgan pul majburiyatini bekor qilmaydi.

Chek bo’yicha pul chek beruvchining mablag’lari hisobyad to’lanadi. Chek muayyan muddatda to’lovga taqdim ètilgan taqdirdagina u bo’yicha pul to’lanadi. Chek bo’yicha to’lovchi chekning qonuniyligiga, shu jumladan, taqdim ètuvchi chek bo’yicha vakil qilingan shaxs èkanligiga ham imkoniyatdagi usullar bilan ishonch hosil qilish kerak.

Soxta, o’g’irlangan yoki yo’qotib qo’yilgan chek bo’yicha to’lovchi pul to’lash oqibatida ko’rilgan zarar kimning aybi bilan etkazilganiga qarab, to’lovchining yoki chek beruvchining zimmasiga yuklatiladi.

Kredit kartochkalari — bu nasiyaga tovar sotishning o’ziga xos usuli sifatida ham ma’lum.

Afsuski, plastik kartochkalardan har doim ham foydalanish mumkin èmas. Bozorlarda, shuningdek, maxsus èlektron to’lovlarni qabul qilish jihozlariga, qurilmalariga èga bo’lmagan savdo shoxobchalarida ulardan foydalanish imkoniyati mavjud èmas.

Iste’molchilar plastik kartochkalardan to’lov vositasil foydalanganlarida shuni ham unutmasliklari lozimki tovarlar naqd pulda narxi qancha miqdorda bo’lsa,

plastik kartochka orqali to’lov amalga oshirilganda ham xuddi o’sha narxda sotilmog’i kerak. Boshqacha aytganda, plastik kar-tochkalar naqd pullarga nisbatan kamsitilmasligi lozim

Davlat iste’molchilarning tovar (ish, xizmat) sotib olish va undan foydalanish chog’idagi huquqlari hamda qonun bilan qo’riklanadigan manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi.

Iste’molchilarning huquqlari davlat tomonidan himoya qilinishini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek sudlar ta’minlaydilar.

Quyidagilar iste’molchilarning huquklarini himoya qilish uchun maxsus vakolat berilgan davlat organlaridir: O’zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’mitasi; O’zbekiston standartlashtirish, metrologiya va serti-fikatlashtirish agentligi (bundan buen matnda «O’z-standart» agentligi deb yuritiladi); O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligi; O’zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo’mitasi; O’zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo’mitasi; iste’molchilarning huquklarini himoya qilish to’g’risidagi qonun hujjatlariga rioya ètilishini o’z vakolatlari doirasida nazorat qiluvchi boshqa boshqaruvi organlari.

**Iste’molchilar huquklari himoya qilinishi uchun mahalliy xokimiyat organlari:**

iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi qonun qujjatlari bajarilishini tashkil ètadilar;

iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish vakolati berilgan davlat organlari va iste’molchilarning jamoat birlashmalari bilan hamkorlik qiladilar;

iste’molchilarning shikoyatlari, arizalari va takliflarini ko’rib chiqadilar;

iste’molchilarning (iste’molchilar nomuayyan doirasining) huquqlarini himoya qilib sudlarga murojaat ètadilar;

o’z huquqlari doirasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

Iste’molchilar huquklarini himoya qiluvchi davlat jamiyati organlarining huquqiy maqomi O’zbekiston Respublikasinipg 1993 yil 2 sentyabrdagi «Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida»gi Qonuni bilan belgilangan. Ushbu qonunning 1-moddasiga muvofiq, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo’ysunadigan shaharlardan, shuningdek shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) xalq (deputatlari kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlaridir.

O’zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat organlari iste’molchilar huquqlarining himoyasini amalga oshirishda iste’molchilarning jamoat birlashmalari, jumladan ularnipg joylardagi jamiyatlari hamda tayanch guruhlari bilan hamkorlik qiladilar. Ular, iste’molchilarning jamoat birlashmalari bilan hamkorlikni aniq belgilangan reja asosila amalga oshiradilar hamda iste’molchilarning jamoat birlashmalariga o’z pakolatlari doirasida ularning ish faoliyatida ko’maklashadilar.

### 4. Iste’molchilarning tovar sifati haqida ma’lumot olish xuquqi va sifatli yoki sifati lozim darajada bo’lmagan tovarlar (ish xizmatchilar)ni topshirish oqibatlari.

Iste’molchi tovarning ishlab chiqarilishiga, tuzilishiga, tarkibiga doir kamchiliklarni yoki boshqa nuqsonlarni aniqlangan takdirda sotuvchi (ishlab chiqa-I ruvchi) uni ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovarga etti kunlik muddatda, tovar sifatini qo’shimcha ravishda tekshirish zarur bo’lganida èsa, iste’molchi talab qo’ygan paytdan è’tiboran yigirma kun ichida almashtirib berishi shart.

Ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovar bo’lmagan taqdirda, iste’molchining almashtirib berish xususidagi talabi da’vo qilingan paytdan è’tiboran bir oy ichida qondirilishi kerak. Cho’l va olis joylarda, tovarlar vaqti-vaqti bilan olib boriladigan joylarda iste’molchining bunday talabi ushbu joylarga navbatdagi tovar etkazib berish uchun ketadigan muddat ichida, lekin ikki oydan kechiktirmay qondirilishi lozim.

Ana shu muddatlarning o’tkazib yuborilgan har kuni uchun sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste’molchiga almashtirilgan tovarni berish bilan bir vaqtda tovar bahosining bir foizi mikdorida neustoyka (penn) to’laydi.

Iste’molchining roziligi bilan sotuvchi nuqsonli tovarni boshqa markali (modelli, artikulli) shunday tovarga almashtirib berib, xarid narxini tegishincha qayta hisob-kitob qilishi shart.

Mazkur modda mazmunan 13-moddani to’ldirishga xizmat qilib, u nuqsonli tovarni almashtirib berish tartibiga bag’ishlangan.

1.Moddaning 1-qismi iste’molchi tovardagi ishlab chiqarish bilan, tuzilishi tarkibi bilan bogliq kamchi-liklarni yoki boshqa puqsonlarni aniklagan taqairda sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) uii ayni shunday markali (modelli, artikullk) tovarga etti kunlik muddatda, tovar snfatini qo’shimcha ravishda tekshirish zarurati bo’lganida iste’molchi talab qo’ygai paytdan è’tiboran yigirma kun ichida almashtirib berishi shartligi hakida norma belgilaydi.

Tovarnnng ishlab chiqarilishiga doir kamchiliklari uning texnologik jarayonlari bilan bog’liq bo’lib, unda tovar ancha ma’naviy èskirgan, ibtidoiy ishlab chiqarish (usullari yoki bo’lmasa sanitariya-gigiena talablariga nomuvofiq sharoitlarda ishlab chiqarilishi bilan bog’liq kamchilnklar nazarda tutilmoqda. Masalan. kolbasa mahsulotidan temir moddasiniig (uskunaning deyilmoqchi) hidi kelib turishi, spirtli ichimlikdan kerosin hidining anqib turishi yoxud oziq-ovqat mahsulotlaridan hasharotlarning chiqib kelishi kabi. Bular — tabiiyki, oddiy iste’molchining ham (garchi u zodagon bo’lmasa ham) ta’bini tirriq qiladi, ishtahasini bo’g’adi.

Tovarning tuzilishiga doir kamchiliklari uning shakl-shamoyili, miqdori, o’lchami, fasoni, gabariti bilan bog’liq kamchiliklardir. Masalan, 1-sinf o’quvchisi uchun ishlab chiqarilgan «O’qish kitobi»ning o’ta mayda shriftda yozilishi yosh, hali go’dak uquvchini ancha qiynab qo’yadi.

Tovarning tarkibiga doir kamchiliklari uning sifati, sifat ko’rsatknchlari bilan bog’liq kamchiliklardir. Masalan, iste’mol uchun mo’ljallangan yog mahsulotida

inson salomatligi uchun ancha zararli bo'lgan moddalartning (xususan. xolesterin modlasining) ortiqligi, kostyum-shim materialinint tarkibi uning artikulida yozilgan nisbatga to'g'ri kelmasligi kabi.

Sharhlanayotgan moddaning 2-qismiga ko'ra, ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovar bo'lmagan takdirda iste'molchining almashtirib berish xususidagi talabi da'vo qilingan paytdan è'tiboran bir oy ichida, cho'l va olis joylarda, tovarlar vaqti-vaqti bilan olib boriladigan joylarda iste'molchining bunday talabi ushbu joylarga navbatdagi tovar etkazib berish uchun ketadigan muddat ichida, lekin ikki oydan kechiktirmay qondirilishi lozimligini belgilaydi.

Sharhlanayotgan moddaning 3-qismi iste'molchining mavqeini yanada mustahkamlaydi. Unga ko'ra, yuqoridagi muddatlarnnng o'tkazib yuborilgan har bir kuni uchun sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste'molchiga almashtirilgan tovarni berish bilan bir vaqtda tovar bahosiniig bir foizi miqdorida neustoyka (penya) to'laydi. Vaqg — oliy hakam. Vaqtning o'tishi kimning foydasiga ishlaydi? Bir qarashda, iste'molchining foydasiga. Aslida haqiqiy iste'molchi bundan manfaatdor èmas. U huquqi buziltanligi darholga bartaraf qilinishiga ko'rilgan zararlarning qoplanishiga odatlangan bo'lsa masala yanada chigallashadi.

Qonun sharhlanayotgan moddaning 4-qismida sotuvchiga yana bir imkoniyat beradi. Bu faqat iste'molchining roziligi bilan ro'y beradi. Ya'ni, sotuvchi nuqsonli tovarni boshqa markadi (modelli, artikulli) shunday tovarga almashtirib berib, xarid narxini tegishincha qayta hisob-kitob qilishi (bunda narx o'rtadagi tafovutga mutanosib ravishda bo'ladi. Ya'ni, yo ko'payadi yoki kamayadi) shartligini belgilaydi. Iste'molchilarning xukuklarini ximoya kilish tugrisidagi konunning 14-moddasi.

## 5. Iste'molchilarning xuquqlarini davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash va iste'molchilarga sifatsiz maxsulot sotganlik uchun jinoiy javobgarlik.

Iste'molchilarning huquklarini ximoya qilish to'g'risidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik 27-modda.

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste'molchi-larning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgar bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda uning hududiy organlari, agar ishlab chiqaruvchi (ij-rochi, sotuvchi) iste'molchilar huquklarining buzili-shini bartaraf ètish to'g'risidagi ko'rsatmalarni ba-jarishdan bo'yin tovlasa yoki o'z vaqtida bajarmasa, unga jarima solishga hakli. (O'zbekiston Respubli-kasining 2002 yil 5 apreldagi 364-11 son Qonuni tahriridagi qism),

«O'zstandart» agentligi va ushbu Qonun 26-modda-sining birinchi qismida ko'rsatilgan davlat boshqa-ruvining boshqa organlari: (O'zbekiston Respubli-kasining 2003 yil 25 apreldagi 482-11 son Qonuni taqriridagi xat boshi).

tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) majburiy ser-tifikatlash qoidalari ishlab chiqaruvchi (ijrochi) tomonidan buzilsa;

o’zlarining ko’rsatmalarini ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) bajarishdan bo’yin tovlasa, o’z vaqtida yoki lozim darajada bajarmasa;

normativ hujjat talablariga javob bermaydigan tovar (ish, xizmat) tufayli iste’molchilarga zarar etkazilsa, jarimalar solishga haqlidir.

Jarima mikdori va uni undirish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Jarima so’zsiz undirib olinadi.

Jarima solish ishlab chiqaruvchini (ijrochini, sotuvchini) yo’l qo’yilgan qonunbuzarliklarni bartaraf qilish majburiyatidan ozod ètmaydi. (O’zbekiston Respublikasining 2002 yil 5 apreldagi 364-II son Qonun tahriridagi qism).

O’zbekmston Respublikasining 2002 yil 5 apreldagi 364-II son Qonuniga muvofiq beshinchi, oltinchi va et-tinchi qismlari tegishlicha oltinchi, ettinchi va sakki zinchi qismlar deb hisoblansin.

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) davlat boshqaruvi organining ko’rsatmasini to’liq yoki qisman haqiqiy èmas deb topish yoxud jarima solish haqidagts qarorni bekor qilish yoki o’zgartirish to’g’risidagi ariza bilan sudga murojaat ètishga haqlidir,

Ariza berish, agar sud ko’rsatmalarning yoki jarima solish haqidagi qarorning ijro ètilishini to’xtatib turish to’g’risida ajrim chiqarmagan bo’lsa, uni sudda ko’rib chiqish davrida bu hujjatlarning bajarilishini to’xtatib qo’ymaydi.

Tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo’lishi haqidagi talablarga javob bermaydigan tovar (ish, xizmat)lar tufayli iste’molchilarga zarar etkazilsa, tovarlar (ishlar, xizmatlar) xavfsiz bo’lishi ea ularning si-fati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo’ladilar.

Sharhlanayotgan moddada ishlab chiqaruvchi (pjrochi, sotuvchi)ning iste’molchilar huquqlarini himoya qilishto’g’risidagi-qonun hujjatlarini buzganlik uchui javobgarlik holatlari ifodalangan.

O’zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qullab-quvvatlash davlat qo’mitasi hamda uning hududiy organlarn shplab chiqaruvchi (sotuvchi, ijrochi)ga iste’molchilar huquqlarining buzilish holatlarini bartaraf ètish to’g’risida ko’rsatma berishga haqlidirlar. Bunday ko’rsatmalarni bajarishlan bo’yyy tovlagan ishlab chiqaruvchi (sotuvchi. ijrochi)larga jarimalar solinadi. Ushbu jarimalar solish tartibi va miqdori O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 avgust 370-sonli «Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish va reklama to’g’risida»gi Qonun hujjatlari buzilganligi uchun «O’zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’mitasi tomonidan solinadigan jarimalarni xo’jalik yurituvchi sub’ektlarga qullash tartibini tasdiqlash haqida» qaror qabul qilgan (mazkur Qarorga quyidagilarga muvofiq o’zgartirishlar kiritilgan: O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiming 1999 yil 19 mart 123-son, 2000 yil 24 oktyabr 412-soi, 2003 yil 31 yanvar 53-son, 2003 yil 27 oktyabr 467-son qarorlari). Ushbu qaror ilovasida jarimalarni qo’llash tartibi o’z aksiii topgan. Mazkur tartib O’zbekiston Respublikasi hududida o’z faoliyatini amalga oshiruvchi xo’jalik yurituvchi sub’ektlar (ishlab chiqaruvchi, ijrochi, sotuvchi)ga, ularning idoraviy bo’isu-nishi va

mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, joriy ètilishi è'tirof ètilgan. Ushbu qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikii qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarining quyidagi buzilishlari uchun ishlab chiqaruvchiga, ijrochiga va yuridik shaxs bo'lgan sotuvchiga:

a). yaroqlilik muddati o'tib ketgan eki qonun hujjatlarida yaroqlilik muddatlari majburiy ravishda ko'rsatilishi belgilangan bo'lsa ham yaroqlilik muddatlari ko'rsatilmagan tovarlarni sotish uchun qabul qilganlik va sotganlik uchun èng kam oylik iig haqining besh yuz baravari mikdorida;

b). tovarning sotib olinganligini yoki ishning haqi to'langanligini tasdiqlovchi, tovar (ish, xizmat)ning bahosi haqidagi ma'lumot ko'rsatilgan kassa va tovar cheklari hamda boshqa hujjatlar iste'molchiga berilmasdan tovarlar sotilganligi yoki xizmatlar ko'rsatilganligi uchun èng kam oylik ish haqining yuz baravari miqdorida;

v). iste'molchnlar huquqlarining quyidagi buzilishlarini bartaraf ètish to'g'risidagi yozma ko'rsatmalarni bajarishdan bo'yin tovlangan yoki ular o'z vaqtida bajarilmagan hollarda:

— ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tug'risidagi zarur axborot, tovar (ish, xizmat) to'g'risidagi axborot mavju èmasligi, shuningdek tovarni almashtirish tartibi shartlari bajarilmaganligi uchun èng kam oylik ish haqi ning etmnsh baravari miqdorida;

— tovar (ish, xizmat) to'g'risida ishonchli bo'lmagan yoki etarlicha to'liq bo'lmagan axborot berilganligi, kafolat muddati belgilanadigan tovarlar kafolat majburiyatlarisiz sotilganligi va tovarlarning ayrim turlarini sotish (xizmatlar ko'rsatish)ning belgilangan tartibda tasdiq-lanadigan tartibi talablari buzilishining boshqa hollari uchun èng kam oylik ish haqining èllik baravari miqdorida jarima solishga haklidir.

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi mazkur bandning «a» va «b» kichik bandlarida nazarda tutilgan iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun tayyorlovchiga, ijrochiga va jismoniy shaxs bo'lgan sotuvchiga èng kam oylik ish haqining yuz baravari miqdorida jarima solishga haqlidir.

Shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq o'z tekshirishlari va monitoringlar materiallari, iste'molchilar. iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari, ommaviy axborot vositalari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, davlat boshqaruvi organlari, joylardagi davlat hokimiyati organlariiiig arizalari iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish qonun hujjatlari buzgotganligi to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishi uchun asos hisoblanadi.

Qarorda O'zbekistoi Respublikasi Monopoliyadak chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi mansabdor shaxsining iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi haqidagi ishni ko'rib chiqishi va qaror chiqshliga bo'lgan huquqi o'z aksini topgan. Mansabdor shaxsning chiqargan qarorida quyidagilar ko'rsatiladi:

— qaror chiqarilgan sana;

—qarornm chiqargan mansabdor shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi;

— xo'jalmk yurituvchi sub'ekt nomi;

— qonunning buzilnsh turi;

— qonun buzilganligi uchui javobgarlikni nazarda tutuvchi normativ hujjatga havola;

— jarimaning aniq miqtsori, shikoyat qilish tartibi, to'lov muddati.

O'z tekshirishlari natijalari ko'rib chiqilganda shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ektni tekshirish dalolatnomasining tartib raqami va sanasi ko'rsatiladi.

Qaror yozma shaoda chiqariladi va ushbu maisabdor shaxs tomonidan imzolanadi. Qarorning yana bir ahamiyatli jihati, O'zbekistoi Respublikasi Mopopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qullab-quvvatlash davlat qo'mi-tasi tomonidak xo'jalik yurituvchi sub'ektga jarima solnsh to'g'risidagi qarori jarimani darhol to'lashni nazarda tutsa, jarimaning birdaniga to'lanishi xo'jalik yurituvchi sub-'ektning bankrot bo'lishiga olib kelishi mumkin bo'lsa, ushbu jarimani bo'lib-bo'lib to'lash uchun jarima solish to'g'risidagi qarorni qabul qilgan shaxs tomonidan imko-niyat berilishi mumkinligidir.

"O'zstandart" agentligi va boshqa davlat boshqaruv organlari quyidagi hollarda ishlab chiqaruvchi (sotuvchi, ijrochi)ni iste'molchilar huquqlarini himoya qilishto'g'ri-sidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchui javobgarlikka tortadilar va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jarima undiradilar:

1). tovarlarni majburiy sertifikatlash qoidalari buzilganda. Tovarlarni majburiy sertifikatlash qoidalari O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 28 dekabrda q.abul qilingai «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlash-tirish to'g'risida»gi Qonunda belgilangan.

2) uzlarini kursatmalarini ishlab chikaruvchi (ijrochi, sotuvchi) bajarishdan buyin tovlasa yoki uz vaktida yoxud lozim darajada bajarmasa;

3) normativ xujjat talablariga javob bermaydigan tovar (ish xizmati) tufayli iste'molchilarga zarar etkazganda bunday jarima suzsiz aktseptsiz undirb olinadi.

Majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish ishlarini tashkil ètish "O'zstandart" agentligi zimmasiga yoki uning topshirig'iga binoan boshqa sertifikatlashtirish organlariga (ularni albatta akkreditatsiya qilgan holda) yuklatiladi.

Sertifikatlashtirilishi shart bo'lgan mahsulotlarni ruyxatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydi.

Odamlarning hayoti, sog'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga hamda atrof-muhitga zarar etkazishi mumkin bo'lgan mahsulotlarni tayyorlash, ulardan foydalanish, ularni tashish yoki saqlash xavfsizligini ta'min-lovchi talablar bo'lmagan taqtsirda davlat boshqaruvining teg'ishli organi bunday talabiomalarni kechiktirmay ishlab chiqishi va amalga kiritishi shart.

Majburny sertifnkatlashtirish ishlab chiqarishni tekshirishni, mahsulot xususiyati normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash uchun uni sinashni, nazorat yo'sinidagi tekshiruvni va sertifikatlangan mahsulot ustidan nazoratni o'z ichiga oladi.

Sinovlar akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari) tomonidan tegishli normativ hujjatlarda belgilangan usullarda, bunday hujjatlar bo’lmagan taqdirda èsa tegishli sertifikatlashtirish organlari ishlab chiqqan usullarda amalga oshiriladi.

Majburiy sertifikatlashtirish ishlari uchun arizachi qonun hujjatlarida belgilab qo’yilgan tartibda haq to’laydi.

Arizachi o’z mahsulotini majburiy sertifikatlashtirishdan o’tkazishga sarflagan mablag’lar summasi shu mahsulot tannarxiga qo’shilali.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo’ltan, ammo muvofiqlik sertifikatiga èga bo’lmagan mahsulotni targ’ib qilish man ètiladi.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo’lgan mahsulotlar quyidagi hollarda:

— sertifikatlashtirishga taqtsim ètilmag’an bo’lsa;

— sertifikatlashtirish talablariga muvofiq èmasligi sababln sertifikatlashtirishdan o’tmagan bo’lsa;

— agar sertifikatning amal qilish muddati tugagan eki uning amap qilishi to’xtatib quyilgan (bekor qilingan) bo’lsa O’zbekiston Respublikasn hududida realizatsiya qili^ nishi mumkin èmas.

Qonunga xilof tarzda muvofiqlik belgisi bosilgan mahsulotlarni realizatsiya qilish man ètiladi.

Majburiy sertifikatlashtirshshshi lozim bo’lgan maqsu-lotlarni realizatsiya qiluvchi tayyorlovchilar (tadbirkorlar):

— majburiy sertmfikatlashtirilishi lozim bo’ltan mahsulotni sertifikatlashtirishga taqdim ètishlari;

— sertifikatlangan mahsulotni sertifikatlash organlarnting o’zi yoki ular è’tirof ètgan organlar bergan sertifikat mavjud bo’lgan taqdirdagina realizatsiya qilishlari va uning normativ hujjatlar talablariga mos bo’lishini ta’minlanlari;

— sertifikatlangan mahsulotni, basharti, u normativ hujjat talablariga muvofiq kelmasa, shuningdek sertifikatning amal qilish muddati tugagan yoxud unipg amal qilishi sertifikatlashtirit organining qarori bilan to’xtatib qo’yilgan yoki bekor qilingan bo’lsa. realizaiiya qmlishni to’xtatib qo’yishlari yoki tugatishlari;

— majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo’lgai mahsulotni sertifikatlashtiruvchi va sertifikatlangan mahsulotni nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari o’z vakolatlarinp mopeliksiz bajarmshlari uchun sharoit yaratishlari;

— sertifikatlangan mahsulot ishlab chiqarishnipg texnikaviy hujjatlariga yoki texnologik jarayonga kiritilgan o’zgartishlar haqida sertifikatlashtirish organini belgilangan tartibda xabardor ètishlari;

— ilova qilingan texnik hujjatda mahsulot muvofiq kelishi lozim bo’lgan sertifikatlashtirish to’g’risidagi ma’lumotlarni hamda normativ hujjatlarni ko’rsatishlari va bu ma’lumotlar iste’molchi (xaridor, buyurtmachi) è’tiboriga etkazilishi ta’minlashlari shart.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasiga etkazib berish uchun tuziladigan kontraktlar (shartnomalar) shartida mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi, «O'zstandart» agentligi tomonidan berilgan yoki è'tirof ètilgan muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari bo'lishi nazarda tutilishi kerak.

## Tayanch suzlar.

Istemolchilar xukuklarini ximoya kilish tushunchasi. Istemolchilar xukuklarini ximoya kilish tugrisidagi ayrim konun xujjatlar xamda xalkaro shartnomalar va bitimlar oldi sotti sotdi shartnomalar. Istemolchilarni xukuklarini ximoya kilish tugrisida davlat vsud urganlarining roli.

## Kaytarish uchun savollar.

1. Istemolchilar xukuklarini ximoya kilish tugrisidagi konun xujjatlari.
2. Istemolchilar xukuklarini ximoya kilish buyicha xalkaro shartnoma buyicha.
3. Istemolchilar xukuklarini ximoya kilish buyicha bitimlar.
4. istemolchilarning tovar tugrisida ma'lumot olish xukuki.
5. Istemolchining xavsiz bulishiga talab kuyish xukuki.
6. Istemolchilar xukuklarini xar tomonlama ximoya kilish.

### 5-Mavzu. Mehnat munosabatlarining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.

**Reja:**

1. Mehnat huquqi tushunchasi, predmeti, manbalari, tamoyillari va funktsiyalari.
2. Jamoa shartnomalari va kelishuvlari.
3. Mehnat shartomasi (kontrakti). Uni tuzish va bekor qilish tartibi.
4. Mehnat intizomi va mehnat intizomlari xal ètish.

### 1. Mehnat huquqi tushunchasi, predmeti, manbalari, tamoyillari va funktsiyalari.

1.Mehnat huquqi : O'zbekiston Respublikasi huquqinig èng muhim keng xajmli va murakkab tarmoqlardan biri.

U (korxona qanday tashkiliy-xuquqiy shaklda bo'lishdan qat'iy nazar) xodimlar av ish beruvchilar mehnat munosabatlarini muvofiqlashtirishda asosiy rol o'ynaydi. Mehnat huquqi mehnat munosabatlaring vujudga kelishi, amal qilish va bekor qilishni tartibga soladi , xodimlarning birgalikdagi mehnatlari rejimini belgilaydi, mehnat mezoni, mehnatni muhofaza ètish qoidalari va mehnat nizolarini ko'rib chiqish tartibini o'rnatadi.

**Layoqatni qo'llashda kelib chiqadigan mehnat munosabatlari mehnat huquqi predmeti bo'lib maydonga chiqadi. Unga quyidagilar kiradi:**

- xodim va ish beruvchi o'rtasidagi munosabatlar;
- mehnat jamoasi manfatlarini ifodalovchi kasaba uyushmasi organi xodimlarning mehnat sharoitlari, turmushi va dam olishni yaxshilash yuzasidan korxona ro'yobga keladigan tashkiliy boshqaruv munosabatlar;
- ishchi kuchlarni qayta taqsimlash bu yilga munosabatlar;
- mehnat nizomlarini hal ètishda vujudga keladigan protsessual munosabatlar.

Mehnat huquqi usuli. Mehnatning boshqa xar qanday tarmog'i singari mehnat huquqi ham faqat o'zigagina xos bo'lgan o'z usuliga èga. Ma'lumki usulninigmazmuni-munosabatlar qanday usullar bilan muvofiqlashtiradi yoki boshqariladi-degan savolga javobda o'z ifodasini topadi. Ushbu usulning asosiy xususiyatlari quyidagicha namoyon bo'lishi mumkin:

1. Fuqorolarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb ètish direktiv ko'rsatmayordamida èmas, balki èrkin manfaatdorlik asosida, ya'ni mehnat munosabatlari ishtirokchilariga shartnomaviy èrkinlikni berish orqali amalga oshiriladi. Mehnat munosabatlarinig ixtiyoriyva shartnomaviy motsiyasining 37-moddasida mustaxkamlar qo'yilgan.
2. Taraflarning yuridik tengligi fuqarolik-xuquqiy munosabatlar kabi mehnat munosabatlariga ham xosdir.
3. Mehnat xuquqi markazlashgan va loqal boshqaruvning qo'shib olib borilishi bilan ajralib turadi. Loqal xujjatlarida taraflar kelishuviga binoan ish kuni tartibi belgilanadi, dam olish vaqti aniqlanadi, ta'tillar grafigi hamda xodimlar mehnat sharoiti batafsil ipdan-ignasigacha tartibga soluvchi boshqa masalalar kelishiladi. Lekin bunda loqal xujjatlar normalari respublika qonun xujjatlariga zid bo'lmasligi muhimdir.
4. Mehnat shartnomalari taraflarining majburiyatlarni bajarish vositasi sifatida qo'llanadigan sanktsiyalar mohiyati. Sanktsiyalarni qo'llanish va xodimlar xuquqlarini ximoya qilish suddan tashqari tartibda amalga oshirirladi. Xodimni ishga qayta tiklash bilan bog'liq masalalar bundan mustasno. Mehnat xuquqi bo'yicha javobgarlik choralari moddiy, intizomiy xarakterga èga bo'ladi.

Mehnat xuquqi manbalari. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 1-moddasiga muvofiq "O'zbekiston Respublikasida mehnatga oid munosabatlar, mehnat to'g'risidagi qonun xujjatlari, jamoa kelishuvlari, shuningdek jamoa shartnomalari va boshqa lokal normativ xujjatlar bilan tartibga solinadi".

**Mehnat huquqi manbalariga respublika va lokal manbalarga bo'linadigan ishlar kiradi:**

1. Mehnatga doir qonuni xujjatlarinig yuridik bazasi xisoblangan O'zbekiston Respublikasininig Konstitutsiyasi;
2. Mehnat huquqi normalarini aks èttiruvchi qonunlar;

3. O’zbekiston Respublikasininig mehnat kodeksi;

4. O’zbekiston Respublikasi Prezidenting mehnat munosabatlarini tartibga solishga yunaltirilgan normativ farmonlari;

5. O’zbekiston Respublikasi Hukumatining Qoraqolpog’iston Respublikasi Hukumatining mehnat huquqi predmetini tashkil ètuvchi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qarorlari;

6. O’zbekiston Respublikasi qonunlari va Oliy Majlis qarorlari;.

7. Qoraqolpog’iston Respublikasi qonunlari va Jo’qorgi Kenes qarorlari;

8. Davlat xokimiyati vakillik va ijroiy organlari o’z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlar (Mehnat kodeksining 1-moddasi).

**Mehnat xuquqining lokal manbalariga quyidagilar kiradi:**

1. Mahalliy o’zini-o’zi boshqarish organlarining xuquqiy ijodkorligi;
2. korxonada o’rnatilgan ichki mehnat tartibi qoidalari;
3. jamoa shartnomalari va kelishuvlari
4. mehnat shartnomalari (kontraktlari);
5. korxona va muassasalarning buyruq va farmoyishlari.

Mehnat xuquqi tamoyillari:

1. fuqarolarning o’z mehnat layoqatlarini o’zlari èrkin tasarruf ètishlari tamoyillar mehnatni baravar rag’batlantirish tamoyili;

2. xodimlar ahvolining mehnat xaqidagi qonun xujjatlarida nazarda tutilganidan pasayib ketishiga yo’l qo’yib bo’lmasligi tamoyili:

Mehnat xuquqi funktsiyalari mehnat qonunchiligi oldida turgan vazifalar bilan belgilanadi. Ushbu vazifalar O’zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 2-moddasida bayon ètilgan. Ko’rsatib o’tilgan modda mazmuniga nazar tashlar èkan, unda keltirilgan vazifalar ko’proq deklarativ xarakterga èga èkanligini sezish mumkin.

Mehnatga oid munosabati sub’ektlari asosiy va qo’shimcha sub’ktlarga bo’linadi. Bunday bo’linish u yoki bu sub’ekt mehnat munosabatlarining vujudga kelishi, amal amal qilish va bekor qilinishiga ta’sir ètish darajasiga asoslangan. Xodim va ish beruvchi mehnat munosabatlarining asosiy sub’ektlari bo’lib maydondga chiqadilar (O’zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 14-15-moddalari).

Mehnat jamoasi kengashi; mehnat nizolari bo’yicha komissiyalar; kasaba uyushmalari; mehnat organlari; korxonadagi yuridik xizmatlar va ishlab chiqarishning normal ishlashni ta’minlovchi boshqa tarkiblar qo’shimcha sub’ktlarga kiradi.

Xodimlarning majburiyatlari umumiy tarzda qo’yilgan hamda ichki tartib qoidalari va qo’shimcha yo’riqnomalar bilan batafsil reglamentlar qo’yilganlari Federatsiyasi kengashi va ish beruvchilarning respublika miqiyosidagi birlashmalari o’rtasida, taraflarning taklifiga ko’ra èsa O’zbekiston Respublikasi xukumati bilan ham tuziladi.

Bosh kelishuv ijtimoiy-iqtisodiy masalalari xususida kelishuv siyosat olib borishni umumiy tamoyillarini belgilab beradi. (Mehnat kodeksining 48-moddasi).

Tarmoq kelishuvlari tarmoqni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, mehnat shartlari va unga xaq to'lashni, tarmoq xodimlarning (kasbdoshlar guruxlarining) ijtimoiy kafolatlarini belgilab beradi. (Mehnat kodeksining 49-moddasi).

Xududiy mintaqaviy kelishuvlar tegishli kasaba uyushmalari (xodimlarning boshqa vakillik organlari) va ish beruvchilar (ularning birlashmalari) o'rtasida, taraflarning taklifiga ko'ra èsa joylardagi mahalliy hokimiyat ijroiy organlari bilan ham tuziladi.

**2. Jamoa shartnomalari va kelishuvlari.**

Mehnat shartnomasi – xodim bilan ish beruvchi o'rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo'yicha ishni ichki mehnat tartibiga bo'ysungan xolda taraflar bilan belgilangan shartlar asosida haq èvaziga bajarish haqida kelishuvdir.

Xodim va ish beruvchi mehnat shartnomasining taraflari bo'lib hisoblanadilar. (Mehnat kodeksining 72-moddasi).

Mehnat shartnomalari faqat taraflarning o'zaro roziliklari bilangina tuziladi. Dastlabki xohish-iroda kirmoqchi bo'lganiroda ishga kirmoqchi bo'lgan shaxs yozma ariza berishda o'z ifodasini topadi. Muqobil hoxish-iroda ish beruvchidan kelib chiqishi kerak.

Mehnat daftarchalari korxonada besh kundan ortiq ishlagan barcha xodimlar uchun tutishadi. Mehnat daftarchasi xodimining mehnat stajini tasdiqlovchi asosiy xujjatdir.

Ish beruvchi mehnat daftarchasiga ishga qabul qilish, boshqa doimiy ishga o'tkazish va mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi ma'lumotlarni yozishi shart. Xodimning iltimosiga ko'ra mehnat daftarchasiga o'rindoshlik asosida ishlagan va vaqtincha boshqa ishga o'tkazilgan davrlar xaqidagi yozuvlar kiritiladi. Mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari mehnat daftarchasiga yozilmaydi. (Mehnat kodeksining 81-modda).

O'zining mehnat vazifalarini bajarish jarayonida xodim boshqa ishga o'tkazilishi mumkin.

Mehnat shartnomasi zarur shartlaridan birini o'zgartirilishi boshqa ishga o'tkazish xisoblanadi. Mehnat qonunchiligi boshqa ishga o'tkazilishini bir qancha turlarini ajratib ko'rsatadi:

1) agar xodimga doimiy asosda boshqa kasb, mutaxassislik, vazifa bo'yicha ish topshiriladigan bo'lsa, o'sha korxonaning o'zida boshqa ishga o'tkazish xolati ro'y beradi;

2) boshqa joyga ishga o'tkazish.

Yuqoridagilar doimiy ishga o'tkazish turlari bo'lib, ular faqat xodimnin roziligi bilan amalga oshiriladi. Doimiy boshqa ishga o'tkazishlaridan tashqari korxona ma'lumoti xodimni vaqtincha boshqa ishga o'tkazib turishga xaqli. 91-

moddada bayon qilgan. Unga ko'ra mehnat shartnomasi quyidagi xolatlarda bekor qilinishi mumkin:

1. taraflar kelishuviga asosan. Ushbu asos bo'yicha mehnat shartnomasining barcha turlari istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin;
2. taraflardan birining tashabbusiga ko'ra;
3. muddatning tugashi bilan;
4. taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan xolatlarga ko'ra;
5. yangi muddatga saylanmaganligi (tanlov bo'yicha o'tmaganligi ) yoxud saylanishida qatnashishida rad ètganligi munosabati bilan;
6. mehnat shartnomasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra. Mehnatga oid munosabatlarni bekor qilish to'g'risidagi shartlar qonunda yo'l qo'yilgan xollardagi mehnat shartnomasida ko'rsatib qo'yilishi mumkin.

Shuni qayd ètish joyizki, taraflar kelishuviga binoan mehnat shartnomasini bekor qilish, mehnat shartnomasini xodimning tashabbusi bilan bekor qilinishidan kqp ham farq qilmaydi.

Xodim tashabbusi bo'yicha mehnat shartnomasini bekor qilishga O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 99-moddasiga binoangina yo'l qo'yiladi.

### 3. Mehnat shartomasi (kontrakti). Uni tuzish va bekor qilish tartibi.

Muhim mehnat shartnomalarini huquqiy tartibga solish-xuquqiy munosabatlar mazmunini tashkil tashkil ètadi. Ish vaqtini belgilash, ya'ni xodim o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish kerak bo'lgan vaqtni belgilash èng muhim mehnat shart-sharoitlaridan biri xisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining ish vaqtida uch to'rt

- ish vaqtining normal muddati;
- ish vaqtinig qisqartirilgan muddati;
- to'liqsiz ish vaqti.

Ish vaqtining normal muddati "haftasiga qirq soatdan ortiq bo'lishi mumkin èmas" muddati etti soatdan, besh kunlik ish haftasida èsa sakkiz soatdan ortib ketmasligi lozim.... (Mehnat kodeksining 115-moddasi). Bayram kunlari arafsida besh kunlik ish haftasi uchun ham, shuningdek olti kunlik ish haftasi uchun ham kundalik ish muddati kamida bir soatga qisqartiriladi. (M. kod. 121-moddasi).

**Mazkur kodeksning 116-moddasiga muvofiq ish vaqtinig qisqartirilgan muddati quyidagicha belgilanadi:**

- o'n sakkizga yoshga tulmagan xodimlar uchun (242-modda);
- I va II guruh nogironlari bo'lganxodimlar uchun (220-moddaning uchinchi qismi);
- noqulay mehnat sharoitlardan ishlarda band bo'lgan xodimlar uchun (111-modda);
- alohida tusga èga bo'lgan ishlardagi xodimlar uchun (118-modda);

- uch yoshga tulmagan bollari bor va byudjet xisobidan moliyaviy jixatdan ta'minlanadaigan muassalar va tashkilotlarda ishlayotgan ayollar uchun (228-modda).

Ish vaqtining qisqartirilgan muddati ko'zda tutilgan xodimlarning mehnat haqi o'sha korxonada to'liq ish vaqti asosida ishlaydigan xodimlar mehnat haqidan kam bo'lmasligi kerak. Bajarishdan xam bo'lgan va bundan u o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanish mukin bo'lgan vaqtdir (mehnat kodeksi 126-modda qonun xujjatlari dam olish vaqtining quyidagi turlarini belgilaydi).

- ish kuni davomidan tanaffuslar;
- haftalik dam olish (dam olish va bayram kunlari);
- xar yilgi navbatdagi mehnat ta'tillari;
- ish xaqi saqlanmagan holda berilgan ta'tillari.

127-moddaga muvofiq "xodimga ish kuni (smena) davomida dam olish va ovqatlanish uchun tanaffus berilishi kerak, bu tanaffus vaqtiga kiritilmaydi.

Tanaffus berish vaqtini va uniing aniq muddati ichki mehnat ta'tili qoidalarida, smena garfiglarida yoki xodim ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilab qo'yiladi".

Mehnat tug'risidagi qonunchilikda va boshqa normativ xujjatlarda ish kuni davomida qo'shimcha tanaffuslar ham nazoratda tutilishi mumkin.

Xar xaftalik dam olish mehnat kodeksini 129-moddasiga muvofiq "barcha xodimlarga dam olish kunlari (xar haftalik uzluksiz dam olish) beriladi".

Yillik navbatdagi mehnat ta'tillari ish joyidan qa'tiy nazar barcha xodimlarga beriladi. Yillik mehnat ta'tillari yillik xaq to'lanadigan ta'lim, yillik qo'shimcha ta'lim va ish xaqi saqlangan holdagi ta'tillarga bo'linadi.

Yillik xaq to'lanadigan ta'til yillik xoldagi ta'tillarga bo'linadi.

Yillik xaq to'lanadigan ta'til xodimlarga o'n bir oylik uzluksiz ishdan keyin beriladi. O'z. Res.si Mehnat kodeksining 134-moddasiga binoan "xodimlarga o'n besh ish kunidan kam bo'lmagan muddat bilan yillik asosiy ta'til beriladi".

Yoshi va sog'lig'i holatini xisobga olib quyidagilarga yillik uzaytirilgan asosiy ta'til beriladi:

- o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga-o'ttiz kalendar' kuni;
- ishlayotgan I va II guruh nogironlariga - o'ttiz kalendar' kuni;

Ayrim toifadagi xodimlarga ularning mehnat vazifalarining o'ziga xos jixatlari va xusisiyatlarini hamda boshqa holatlarni è'tiborga olib, qonun xujjatlariga muvofiq uzaytiriladi ta'tillar belgilanadi .

Yillik qo'shimcha ta'tillar yillik xaq to'lanadigan asosiy ta'tilga qo'shimcha ravishda va 136-moddaga muvofiq quyidagi xodimlarga beriladi:

- Mehnat sharoiti noqulay va alohida turiga èga bo'lgan ishlar uchun band bo'lgan ishlar uchun band bo'lgan xodimlarga (137-modda).
- Og'ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoiti bajarilayotgan xodimlraga (138-modda). Tabiiy iqlim sharoiti og'ir va noqulay joylar ruyxat hamda yillik qo'shimcha ta'tilinig èng kam muddati O'zb. Res.si Hukumati tomonidan belgilab qo'yiladi;

Mehnat tug'risidagi qonunlar va boshqa normativ xujjatlarda mehnat shartnomasining shartalirida nazarda tutilgan boshqa xollarda belgilash bilan uni asosiy yoki qo'shimcha ta'tildan chaqirib olish mumkin. Bunda xodim sabablarini izoxlangan xolda o'z ta'tilining uzilishiga rad javobini berishga xaqli. Bunday rad javobiga mehnat intizomini buzish deb qarashlari mumkin èmas.

## 4. Mehnat intizomi va mehnat intizomlari xal ètish.

Mehnat intizomi- bu ishlab chiqarish jarayonida xodimlraniing xatti-xarakatlari muayyan tartibidir. Ular ishontirish, xodimini moddiy qiziqtirish, halol mehnati uchun rag'batlatirish usullari bilan shakillantiradi. Mehnat kodeksining 176-moddasining muvofiq, xodim o'z mehnat vazifalarini xalol, vijdonan bajarilishi, mehnat intizomiga rioya qilish, ish beruvchining qonuniy farmoyishlarini o'z vaqtida va aniq bajarilishi, texnologiya intizomiga, mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va ishlab chiqiish sanitariyasi talablariga rioya qilish, ish beruvchining mulkini avaylab-asrash shart.

**Mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi quyidagiintizomiy jazo choralarini qo'llash mumkin:**

1. xayfsan;
2. oylik ish haqining o'ttiz foizdan ortiq bo'lmagan miqdordagi jarima.

Ichki mehat tartibi qoidalarida oylik ish xaqining èllik foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda xodimga jarima solish ko'zda tutilgan bo'lishi mumkin. Xodimning ish xahidan jarimani ushlab qolish mazkur kodeksning164-moddasi talablariga rioya ètgan xolda amalga oshiriladi.

3. Mehnat shartnomasini bekor qilish (100-moddaning ikkinchi qismi 3 va 4 bandlari).

Ushbu moddada nazarda tutilgan intizomiy jazo choralarini qo'llashni ta'qiqlanadi. (Mehnat kodeksining 181-moddasi).

Mehnat nizolarini xal ètish tartibi. Yakka mehnat nizolari deganda, ish beruvchi va xodim o'rtasida mehnat to'hrisidagi qonunlarini qo'llanish, mehnat shartalrini belgilash yoki o'zgartirish bo'yicha kelib chiqadigan kelishmovchiliklarni tushunish kerak. (mehnat kodeksi 259-m).

1.Ma'muriyat va xodimlarniing mehnat qonunlarini yaxshi bilmasliglari.

2.Tez o'zgaruvchi tashqi holatlarda qonunlarning uzining nomukammalligi.

3.Ma'muriyat bilan kasaba uyushmaliri o'rtasidagi kelishmovchilik.

Mehnat nizolari bo'yicha komissiya jamoa shartnomasida agar u tuzilmagan bulsa, ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boqa vakillik orgoni o'rtasidagi kelishuvda mehnat nizolari komissyalarini tuzish nazarda tutilishi mumkin. Bevosita tuman shahar sudlarida quyidagi mehnat nizolari ko'riladi:

1. Agar xodimning ish joyida mehnat nizolari komissiyasi tuzilmagan bo'lsa;
2. Ular mehnat shartnomasini bekor qilish asoslaridan qat'iy nazar ishga tklash to'g'risida mehnat shartnomasini bekor qilish vaqti va asoslaridan ta'rifini

o'zgartirish to'g'risida majburiy progul yoki haq to'lanadigan ishni bajargan vaqt uchun xaq to'lashga doir bo'lsa;

3. Ular xodim tomonidan ish beruvchiga etkazilgan zararning to'lanish xaqida bo'lsa;

4. Ular mehnat vazifalarini bajarayotganda xodimning sog'lig'iga shikast etkazilgani oqibatidagi zararni yoki uning mol-mulkiga etkazilgan zarani ish beruvchi tomonidan to'lanish haqida bo'lsa;

5. Ular mexnat kodeksining 78-moddasini 2-qismida nazarda tutilgan hollarda ishga qabul qilish rad ètilganligi haqida bo'lsa;

6. Ular ish beruvchi va ksaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik orgonlari bilan oldindan kelishib hal ètilgan masalalar yuzasidan kelib chiqqan bo'lsa. Ishga tiklanish bo'yicha davo arizasiga binoan xodim quyidagilarni talab qilishga haqli:

1. Bevosita uzini ishga tiklanishi;
2. Majburiy progul uchun haq to'lanishi;
3. Mazkur ma'naviy zararni qoplashi;

(mehnat kodeksiing 273-moddasiga muvofiq xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilinishi uni ishga tiklash shuningdek mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari ta'rifini o'zgartirish to'g'risida sud chiqargan hal qiluv qarori yoki g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'kazish hodimni avvalgi ish joyiga tiklash haqida mehnat nizolarini ko'ruvchi organ chiqargan qaror dar hol ijro ètilishi lozim.

## Tayanch suzlar.

Mexnat xukuki, shartnoma kelishuvlar, mexnat shartnomasi, mexnat intizomi, mexnat nizomlari. Bayram kunlari. Dastlabki sinov dam olish vakti, jamoa shartnomasi. Ish vakti. Ijtimoiy ta'til. Intizomiy jazo. Mexnat shartnomasi. Mexnat xaki. Mexnat tartibi.

## Kaytarish uchun savollar.

1. Mexnat xukuki tushunchasi, predmeti, usuli, manbalari tamoyillari va funktsiyalari xakida.
2. Jamoa shartnomlari va kelishuvlari xakida.
3. Mexnat shartnomasi uni tuzish bekor kilish tartibi xakida.
4. Bayram kunlari.
5. Ishsizlik va ishdan bushatish nafakasi.
6. Intizomiy jazolar.
7. Majburiy mexnat.
8. Mexnat shartnomasi.
9. Mexnat daftarchasi.
10. Mexnat nizomlari.
11. Moddiy javobgarlik.
12. Mexnatni muxofaza kilish.
13. Kasaba uyushmasi.

## 6-Maruza. Oila xukuki asoslari.

## Oila xukuki asoslari

**Reja.**

1.Oila xukukining tushunchasi, predmenti va manbalari. Nigox tuzish va tugatilishi.

2. Èr va xotinning shaxsiy va mulkiy xukuklari xamda majburiyatlari.

3. Ota-onalar xamda bolalarning xukuk va majburiyatlari.

4. Oila a'zolarining aliment majburiyatlari.

5. Ota-ona karamogidar maxrum bulgan bolalarni aniklash va joylashtirish.

### 1. Oila xukukining tushunchasi, predmenti va manbalari. Nigox tuzish va tugatilishi.

Oila xukuki bu- èr-xotinlar, karindoshlar, ota –onalar (farzandlikka oluvchilar)va bolalar urtasidagi shaxsiy nomulkiy va ular bilan boglik mulkiy munasobatlarni tartibga soluvchi xukuk tarmogidir. Ushbu ta'rifdan oila xukuki uzining boshkalaridan fark kiluvchi xususiyatlariga karamay fukarolik xukuki bilan chambarchas boglikliginii xam sezish mumkin. Bu farklar kuyidagilardan iborat. 1) Oilaviy munosabatlar fukarolik fukarolik xukukiga mos bulmagan yuridik faktlardan. 2) Oilaviy munasobatlar fukarolik xukukidan farkli ularok kuprok shaxsiy mulkiy moxiyatga èga. 3). Oylaviy xuqq subektilarining xuquq va majburiyatlari beganalashtirilmaydigan ya'ni boshqalarga topshirib bu moydigan huquq va majburiyatlardan iborat.

Oila xukukining predmeti oilaviy xukuk nomalari bilan tartibga solinadigan musabatlardaan iborat. Oilaviy xukuki normalarida nikoxdan utib tartibi va shartlari belgilaydi.

Èr- xotinning urtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlarni muvafakiyalashtiradi; farza nikox oliy; vasiylik va xomiylik qilishi bilan boglik ravishda vujudga keladigan munasabatlarni tartibga soladi.nigoxni tugatish tartibini va shartlarini belgilaydi.

Uzbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi 1998 yil 30 apreldangi № 607 –1 sonli Uz res prezdenti tomonidan imzolangan va 1998 yil 1 sentiyabrdan boshlab kuchga kiritilgan Uzbekiston Respublikasining Oila kodeksi oila Xukukining asosiy manbasi xisoblanadi. Oilaviy xukuk manbalariga shuningdek Uzbekiston Respublikasi fukarolik kodeksining kator moddalari xam kiradi. Budan tashkari oilpa kodeksining 6-moddasiga binoan «oila tugrisidagi konun xujjatlari bilan birga tartibga solinmagan oila azolari urtasidagi muxit va shaxsiy nomulkiy munosabatlarga nisbatan fukarolik konun xujjatlari oilaviy munosabatlarning moxiyatiga zid kelmagan tagdirdagina kullaniladi».

Nikox tushunchasi - oila huquqining asosiy tushunchalaridan biri xisoblanadi,shu bilan birga, yurdik adabiyotlar nikoxningxilma-xil tavsiflarini o'rgatish mumkin. Biz o'zbek olimi, oila huquqi bo'yicha mutaxasis F. Otaxo'jaev tomonidan o'z dissertatsiasida taklif ètilgan ta'rifni keltirishni o'rinliy deb topdik

“Nikox bir-birini sevgan va nikox yoshiga etgan èrkak va ayolning umuminsoniy qadriyatlar va Sharq an’analariga asoslangan oilada bolalarni tarbiyalashga yo’naltirilgan o’zaro shaxsiy nomu kiy va muxim huquq va majburiyatlarni keltiribchiqaradigan qonun asosidagi oilani yaratish maqsadidagi o’zaro kelishilgan bugun umirgamo’jallangan itifoqdir”.

**Nikox tuzish shartlari.**

1) O’zaro nikoh tuzimini isyaga shaxarlarni nikox yoshig etishi.
2) Nikoxdan o’tuvchilarning o’zaro roziliklari nikox yoshi oila kodkisining 15-moddasiga biroan nikox yoshi èrkaklar uchun uy sakkiz yosh ayollar uchun o’n etti yosh ètib belgilanadi.

O’zrli sabablar bo’lganida, aloxida xollarda bu yosh kamaytirishi, shundan ham bu kamayishi bir yildan ortiq bulmasligi kerak.

**Nikox tuzishga monelik qiladigan xolatlar :**

1) Loakal bittasi ro’yxatga olingan boshqa nikoxda turgan shaxslar o’rtasida nikox tuzish man ètiladi.
2) Nasl-nasab mujorasi bo’yicha to’g’ri tutashgan qarindoshlari qrtasida tug’ushgan va o’gay aka ukalar bilan, opa-singillar o’rtasida , shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandligkka olganlar o’rtasida nikox ro’yxatiga olinishi mumkin èmas.
3) Loqal bittasi ruxiyati buzilishi (ruxi kasaligi yoki aqli zayifligi) sababi sud tomonidan muomolarga loyoqatsiz deb topilgan shaxslar o’rtasida nikox tuzilishiga yo’l qo’yilmaydi (Oila kodeksining 16- moddasi).

Nikox .tuzish tartibi Uzbekiston Respublikasi Oila kodekisining 13-moddasidabelgilab qo’yilgan. O’nga ko’ra, nikox fuqorolik xolati dalolat nomalaring qayd ètish organlarida tuziladi.

Nikoxning tugatilishi turli xildagi yuridik faktorlar asosida ro’y berishi mumkin6

1) Èr-xotindan birining vafoti yoki ulardan birini vafot ètgan deb è’lon qilinishi oqibatida.
2) Nikoxni ajratishi natijasida:
3) Nikoxni xaqiqiy èmas deb è’tirof ètilganligi natijasida (Oila kodeksining 37-moddasi).

**Nikoxni ajratish ikki xil yo’li bilan amalga oshiriladi:**

1) Fuqorolik holati dalolat nomalarni qayt ètish organlarida;
2) Sud tartibida;

Fuqorolik xolati dalolat nomalarning qayt ètish organlarida nikoxni ajiratish bolog’atga etmagan bolalari bo’lmagan èr-xotinning o’zaro roziligi asosida amalga oshiriladi.

O’zbekiston Respublikasi oila kodeksining 43-maddasiga muvofiq fuqorolik xolati dololatnomadrini qayt ètish orgonlarida balog’atga etmagan bolalarning borligidan qatiy nazar èr-xotindan birini arizasiga ko’ra quydagi xollarda nikoxdan ajiratiladi-agar èr-xotindan biri.

- Sud tomonidan bedarak yo’qolgan deb topgan bo’lsa .
- Sud tomonidan ruxiyat buzilishi sababi momolarga layoqasiz deb topilgan bo’lsa
- Sodir etgan xiyonati uchun 3 yildan kam bo’lmagan mudatga ozodlikdan maxkum ètilgan bo’lsa.

Nikoxni ajratish faqat èr-xotinlarni ishtirokidagina ro’y berishi kerak. Agar èr-xotin nikoxiniajiratishini rasmilashtirish uchun fuqorolik xolati dalolatnomalarini qayd ètish organiga uzrli sabablarsiz vaqtida kelishmasa, ularni arizalari o’z kuchini yo’qotadi. Maboda. Èr-xotin bir-birlariga mulkiy da’volari bo’lsa, ular mulkni bo’lib berish bo’yicha baxsni ajriy qilishni sudga murojat ètishga xaqlidirlar.

Sud tartibida nikoxni ajratishiga quydagi xollarda yo’l qo’yiladi.

1) Nikoxni ajratishda èr-xotindan birining yo’lligi.
2) Umumiy balog’atga etmagan bolalar bo’lgan èr-xotinning o’zaro roziligi bo’lganda.

O’zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 40-moddasiga binoan nikoxdan ajiratish to’g’risidagi ishlar sud tomonidan davo ishlarini hal qilish uchun belgilangan tartibda ko’rib chiqiladi.

Nikoxni ajiratishdan farqli o’laroq, nikoxni xaqiqiy èmas deb topish faqat sud tartibida amalga oshiriladi.

Nikoxni xaqiqiy èmas deb topish asoslari:

1) Nikoxni turmish shartlari (14-16-maddalar) va 17-moddaning uchunchi qismi yaqol birontasi mavjud bo’lmaganda;
2) Nikoxni turmishga xalaqit beruvchi biron-bir xolatning mavjudligi;
3) Soxta nikox ya’ni oila qurishni ko’zlamay qurilgan nikox ;
4) Basharti nikoxlanuvchi shaxslardan biri tanolsa kasaligini yoki odam immunteti tanqsiligi virusi (OITS infektsiyasi) borligini boshqasidan yashirgan bo’lsa.

## 2.Èr-xotinning shaxsiy va mulkiy xukuklari xamda majburiyatlari.

Èr-xotinning mulkiy xuquq va majburiyatlari O’zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksi va oila kodeksi normalari bilan tartibga soladi. Èr-xotinning mulkiy munosabatlarni tartibga solishning ikki xil usuli mavjud:

1) Èr-xotin mulkining qonuniy tartibi.
2) Èr-xotin mulkining sharnomaviy tartibi.

Èr-xotin mulkinig qonuniy tartibi shundaki èr-xotin nikox davomida birgalikda olgan mamuriy ègalik qiladilar undan foydalanadilar va bu mulkni tasarruf ètadidlar.

Oila kodeksining 23-moddasiga muvofik èr-xotin nikox davomida ortirgan shuningdek nikox kayd ètilgan kunga kadar bulajak èr-xotinning umumiy mablaglariga sotib olingan mulk èr-xotinning umumiy mulkini tashkil ètadi.

1. Èr-xotin nikox davomida ortirgan mulk.

Bunday mulkka kuydagilar kiradi:

Èr va xotin xar birining mexnat faoliyatidan, tadbirkorlik faoliyatidan intellektual faoliyat natijalaridan ortirgan daromad.

2.Èr-xotin xar birining nikoxga kirishdan oldin ortirgan mol-mulklari.

Oila kodeksining 25-moddasiga binoan mazkur mol-mulk agar nikox davomida èr-xotindan birining mexnat xisobiga mol-mulkining kiymati ancha oshishga olib kelgan mablaglar kushilgani aniklansa shu mol-mulk èr-xotinning birgalikdagi mulki deb topilishi mulkin.

Èr va xotindan birining umumiy mulkini tasarruf ètish Bilan boglik bitim tuzilanda bu xarakat boshkasining riziligiga kura amalga oshirilayotganligini anglatadi.

Èr va Xotin mol-mulkini shartnomaviy tartibi nikox shartnomasini tuzi shorkali rasmiylashtiriladi. Nikox shartnomasi bu «nikoxlanuvchi shaxslarning yoki èr va xotinning nikoxda bulgan davrida ularning nikoxidan ajratilgan takdirda èr-xotinning mulkiy xukuk xamda majburiyatlarini belgilavchi kelishuvi»dir. (oila kodeksining 29-moddasi).

## 3.Ota-onalar va bolalarning xukuk va majburiyatlari.

Bolalarning otav a onadan dunyoga kelganlik xodisasi konuniy tartibda tasdiklangan va aniklangan xodisa asosida vujudga keladi. Onalik tibbiyot muassasasida bolaning shu onda tugulganligini tasdiklavchi xujjatlar asosida aniklanadi. Gudak tibbiyotmuassasasidan tashkarida tugilgan takdirda èsa guvoxlik kursatmalari va boshka dalillar asosida aniklanadi.

Otalik èrkakning bolaning onasi bilan nikoxda turganligi dalili bilan aniklanadi. Bolaning onasi nikoxda turgan otaning otaligi ota va onaligi birgalikda fukarolik xolati dalolatnomalarini kayd ètish organiga arizalari Bilan yoxud èr va xotindan birinmng arizasida binoan sud tartibida belgilanadi.

**Bolaning asosiy xukuklari:**

1). Xar bir bola oilada yashash va tarbiyalanish ya'ni uz ota-onasi Bilan birga yashash xukukiga èga, bola manfaatiga zid bulgan xolatlar bundan mustasnodir (Oila kodeksining 65-moddasi).

2). Xatto ota-onasi urtasidagi nikox bekor kilingan yoki sud tomonidan xakikiy èmas deb topilgan shuningdek, ota-onalar boshka boshka yashagan xollarda xam bola uz ota-onasi bilan kurishish xukukiga èga (ota-onalik xukukidan maxrum ètilgan ota-onalar bundan mustasno). (oila kodeksining 66-moddasi).

3). Karindoshlar (buva, buvi, akalar, ukalar, opa-singillar) Bilan kurishish xukuki (Oila kodeksining 77-moddasi.

4). Ota-ona (ulardan biri) bolani tarbiyalash va ta'lim berish buyicha uz majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganda yoxud ota-onalik xukuklarini suiiste'mol kilganda bola uz xukuk va konuniy manfaatlari ximoya kilinshini surab, vasiylik va xomiylik organiga 14 yoshga tulgandan keyin èsa mustakil ravishda sudga murojaat kilish xukukiga èga. (Oila kodeksining 67-moddasi).

5). Oila kodeksining 70-moddasida familiyani uzgartirish xukuki bolaning manfaatlarini xisobga olib vasiylik va xomiylik organi uning ismini uzgartirishga shuningdek, unga berilgan familiyani xam otasi yoki onasi familiyasiga karab uzgartirishga xakli. Bunda ota yoki onaning fikri shu ota yoki ona ota-onalik xukukidan maxrum ètilgan xollarni mustasno ètgan xolda ètiborgaolinadi.

**Ota-onalik xukukidan maxrum kilishga kuydagi xollarda yul kuyiladi.**

1). Aliment tulashdan kasddan bosh tortganda;

2). Uzirsiz sabablarga kura uz bolasini tugrukxona yoki boshka davolash muassasasidan yoki boshka tarbiyalash yoki davolash muassasasidan va boshka shunga uxshash muassasalardan olishdan bosh tortsa.

3). Ota-onalik xukukini suiist'mol kilsa yani bolalarga nisbatan shavfkatsiz momlada bulsa. Jumladan, jismoniy kuch ishlatsa yoki ruxiy tasir kursatsa ularni shani va kadr kimmatini paymol ètsa va boshkalar.

4). Ota-ona muttasil ichkilikbozlik yoki giyoxvandlikka mubtalo bulgan bulsa.

5). Uz bolalarini xayot iva sogligiga yoxud èri xotining xayot iva sogligiga karshi kasdddan jinoyat sodir ètgan bulsa.

**4. Aliment majburiyatlari kuydagi xolatlarda tugallanadi.**

1). Aliment tulash sharti bulgan shaxsning vafoti yoki aliment olib kelgan shaxsning vafoti Bilan.

2). Aliment tulash tugrisidagi kelishuv amal kiladigan muddatning utishi yoxud ushbu kelishuvda nazarda tutiladigan shartlar asosida.

3). Bola balogat yoshiga etishi yoki balogatga etmagan bolalar shu yoshga etgunga kadar tula muomala layokatiga èrishishlari munosabati bilan.

4). Ta'minoti uchun aliment undirib kelinayotgan bola farzand kilib olinganda.

5). Aliment oluvchining mexnat layokati tiklanganligi yoki yordamga muxtojligi kolmagani sud tomonidan è'tirof ètilganida.

6). Mexnatga layokatsiz yordamga muxtoj aliment oluvchi sobik èr-xotin yangi nikoxga kirganda (oila kodeksning 147-moddasi)

Oilada bir necha bola bulsada èng kichigi 18 yoshga tulgunga kadar ota tomonidan aliment tulashi majburdir, agarda aliment tulashdar buyin tovlasa jinoyat kodeksining tegishli moddasi jinoiy javobgarlikka tortish belgilangan.

## 5.Ota-ona karamogidan maxrum bulgan bolalarni aniklash va joylashtirish.

Uzbekiston respublikasi Olila kodeksining 148-150-moddalariga asosan vasiylik va xomiylik organlari zimmasiga yuklanadi. Bunday joylashtirish vasiylik va xomiylik organlari maxallaiy uz-uzini boshkarish tarkibi va xokimliklarga kiradi. Shuning uchun ularning faoliyati shu xokimliklar tugrisidagi konunda ustav va nizomlarda belgilab kuyilishi lozim.

Ota-oanlar karamogidan maxrum bulgan bolalar borligidan xabardor bulgan fukarolar shuningdek, maktabgacha tarbiya muassasalari umum ta’lim va boshka tarbiya muassasalarining mansabdor shaxslari bu xakda bolalar turgan joydagi vasiylik va xomiylik organiga xabar berishi shart. Bolalarni ta’minlash va tarbiyalash shakllari oila kodeksining 150-moddasiga muvofik ota-ona karamogidan maxrum bulgan bolalar oila farzandlikka olinish vasiylik va xomiylik belgilanishi yoki tutungan olilaga berilishi bunday imkoniyat bulmaganda ѐsa etim bolalar yoki ota-onalar karamogidan maxrum bulgan bolalar uchun tayinlangan muassasalar (tarbiya, davolash va shunga uxshash boshka muassasalar)ga tarbiyaga berilishi lozim.

Bolani farzandlikka olish tartibi Uzbekiston Respublikasi Olila kodeksining 20-bobida belgilangan. Oila kodeksning 152-moddasiga binoan «Farzandlikka olishga fakat voyaga etmagan bolalarga nisbatan va ularning manfaatlarini kuzlab yul kuyiladi. Farzandlikka olishni istagan shaxslarning arizasiga binoan xamda vasiylik va xomiylik organi tavsiyasiga kura tuman shaxar xokimi karori bilan amalga oshiriladi».

Kuydagilan farzandlikka oluvchilar bulishi mumkin ѐmas;

1). Sud tomonidan muamilaga layokatsiz yoki cheklangan arzda layokatli deb topilganda.

2). Sud tomonidan muomilaga layokatsiz yoki cheklangan tarzda layokatli deb topilgan ѐr-xotin;

3). Sud xukmi bilan ota-onalik xukukidan maxrum ѐtilgan yoki ota-onalik xukuki cheklangan shaxslar.

4). Uzlariga yuklangan majburiyatlarni lozim darajada bajarmaganliklari uchun vasiylik vazifalaridan cheklangan shaxslar;

5). Farzandlikka oluvchi shaxlar aybi bilan farzandlikka olganligi bekor kilingan sobik farzandlikka oluvchilar;

6). Salomatliklari xolatiga kura ota-oan xukuk majburiyatlarini ado ѐtishga kurbi etmaydigan shaxslar;

7). Ruxiy kasallliklari yoki narkologiya muassasalarida xisobda turadigan shaxslar;

8). Kasddan kilingan jinoyat uchun mukaddam sudlanganlar (oila kodeksining 152-moddasi)

Aynan bir bolani farzandlikka olishni xoxlovchilar bir necha shaxsdan iborat bulib kolganda yukorida sanab utilgan shartlarga rioya ètgan xolda bolaning karindoshlariga ustunlik xukuki beriladi.

Oilaning jamiyatning asosiy yacheykasi sifatidagi roli aloxida takidlangan. Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Oila deb nomlanagan maxsus 14-bobi bunga yarkin dalil bыla oladi. Bu goyat tabiiydir, chunki Prezidentimiz takidlaganidek pok va sofdil shaxsni tarbiyalashda ona tilini kayta tiklashda xech kim va xeya narsa oila Bilan tenglasha olmaydi.

## Tayanch suzlar.

Oila: ota-ona; oila davlat muxofazasida: nikox tamonlarning tengligi; Èr-xotin, aliment. Yon shajara buyicha karindoshlar. Tugri shajaradagi karindoshlar. Yot aralashmagan karinldoshlar. Yod aralashgan karindoshlar. Karindoshlik xomiylik.

## Kaytarish uchun savollar.

1. Oila xukuki tushunchasi.
2. Oila xukuki predmeti va manbalari.
3. Èr-xotin xukuklari va majburiyatlari.
4. Nikox tuzish va nikoxni tugatish shartlari.
5. Ota-onalar va bolalarning xukuk va majburiyatlari.
6. Aliment majburiyatlari xakida.
7. Ota-onadan maxrub bulgan bolalarni aniklash va joylashtirish.
8. Yon shajara buyicha karindoshlar.
9. Tugri shajaradagi karindoshlar.
10. Yod aralashmagan karindoshla.
11. Yod aralashgan karindoshlar.
12. Karindoshlik.
13. Xomiylik.

### Mavzu 7. Èkologiya huquqi asoslari

**Reja:**

1. Èkologiya xukuki uning predmet iva obektlari.
2. Èkologiya tizimi tushunchasi.
3. Èkologik javobgarlik tushunchasi.

### 1. Èkologiya xukuki uning predmeti va obektlari.

Èkologiya va tabiatni muhofaza qilish muammolari keskinlashib, o'ta ziddiyatli tus olgan hozirgi davrda tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni muvozanatga keltirish asosiy vazifalardan xisoblanadi, Tabiat, inson va jinoyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik muammosi abadiy muammolardan biridir. Tabiat jamiyatning yashash muhiti, uning moddiy va manaviy èhtiyojlarini qondirish

manbai hisoblanadi. Jamiyat tabiat rivojlanishining oliy bosqichi bo'lib, alohida sotsial mazmunga ѐga. Tabiat va o'zaro o'zviy bog'langan, bir butun materiyaning ikki qismi, o'ziga xos sotsioѐkosistema hisoblanadi. Tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadoolik tizimida inson markaziy o'rin ѐgallaydi. Inson bir vaqtning o'zida ham tabiat, ham jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, biosotsial mohiyatga ѐga. Modda va ѐnergiya almashinuvi tabiat mavjudligining asosidir. Materiya xarakatinshg yuqori shakli bo'lgan jamiyat tabiatning alohida "insoniylashgan" qismi sifatida yashaydi va rivojlanadi.

Jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida uning tabiatga bo'lgan munosabati ham o'zgarib borgan. Ibtidoiy jamoa tuzumida insoniyat tabiat sezilarli ta'sir o'tkazmagan. Quldorlik tuzumida dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi tabiatga ta'sirning keskin kuchayishiga sabab bo'lgan. Feodalizm tuzumida mehnat vositalarining takomillashuvi, aholi sonining ortib borishi natijasida insonning ta'sir doirasi va surati o'sib borgan. Kapitalistik iktimoiy-iqtisodiy tuzum qaror topishi bilan fan va texnika rivoji, sanoat, transportning vujudga kelishi, tabiiy boyliklarning tezkor o'zlashtirilishi tabiatga tasirning yuqori darajasiga etkazdi. Atrof-muhitning zararli chiqindilar bilan ifloslanishi muammosi kelib chiqdi. Tabiat va jamiyat o'rtasida o'ziga xos antropogen modda va ѐnergiya almashinuvi vujudga keldi. Antropogen modda almashinuvi ya'ni hom ashyolarni tabiatdan oshig'i bilan olinishi va zararli chiqindi holida atrof muhitga tashlanishi tabiat va jamiyat o'rtasidagi amaliy muvozanatning buzilishiga olib keldi. Tabiat va jamiyat munosabatlarining rivojlanishida biogen, antropogen va texnogen(noogen) bosqichlar ajratiladi.

Tabiiy muhit holatining inson ta'sirida o'zgarishi, jonli va jonsiz komponentlarga kuchli antropogen ta'sir ѐkologik muammolarni keltirib chiqardi, Mahalliy, mintaqaviy va umumsayyoraviy ѐkologik muammolarni ajratish mumkin. Ayrim yirik shahar sanoat markazlari alohida tumanlarda mahalliy, Orolbuyi, Chernobilda mintaqaviy ѐkologik tang vaziyatlar vujudga kelgan. Ozon tuynuklari muammosi, kislotali yomg'irlar, cho'llashish, Dunyo okeanining ifloslanishi va boshqalar umumsayyoraviy ѐkologik muammolar hisoblanadi. Er yuzida ѐkologik tang vaziyatli hududlarning keskin ko'payishi umumsayyoravny ѐkologik inqiroz havfining real ѐkanligini ko'rsatadi. Agar keyingi 30-40 yil ichida ѐkologik muammolarni hal qilish uchun barcha zarur chora tadbirlar ko'rilmasa ѐkologik inqiroz muqarrardir.

Ѐkologiya deganda organizmlarning o'zaro va muhit bilan alo-qadorligini o'rganadigan biologik fan tushuniladi. Shuning bilan birga ѐkologiya deganda inson va organizmlarning yashash muhiti holati, organizmlar (shu jumladan inson) va muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir muammolarini o'rganishga alohida ilmiy yondashish (ѐkologik yondashishi) ham tushuniladi.

Tabiatni muhofaza qilish deganda hozirgi va kelgusi avlodlarning ѐhtiyojlarini hisobga olgan holda tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni musaffo holida saqlashga ajratilgan, ilmiy asosda amalga oshiriladigan mahalliy, davlat va xalqaro tadbirlar majmuasi tushuniladi. Tabiatni muhofaza qilish deganda kompleks fan ham nazarda tutiladi. Demak, ѐkologiya va tabiatni muhofaza

qilish tushunchalari alohida mazmun va maqsadga ѐga bo'lgan tushunchalardir. Ѐkologiya tabiati muhofaza qilishning nazariy asosi hisoblanadi.

Atrof muhitni muhofaza qilish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish tushunchalari tabiatni muhofaza qilish tushunchasiga ma'nodoshdir.

**2. Ѐkologiya tizimi tushunchasi.**

"Ѐkologiya" atamasini fanga birinchi bo'lib nemis olimi Ѐrnst Gekkel' 1866-yili kiritgan. Lekin xozirgi kunda juda ommalashib ketgan bu atamaning mazmuni {grekcha "oykos"- uy, yashash joyi, logos"- fan) ushbu fanning asl mohiyatini to'la tushunish imkonini bermaydi. Ѐkologiya hayot jarayonlarini o'ziga xos uslublarda tadqiq qiladigan mustaqil fan hisoblanadi. Ѐkologiya biologik fanlar turkumiga kiradi va xozirgi kunda bu fanning ijtimoiy hayot bilan bevosita bog'langan tarmoqlari ham rivojlanmoqda.

Ѐkologiyaning juda ko'p ta'riflari mavjud. Ulardan birida shunday deyiladi: "Ѐkologiya organizmlarning (har qanday ko'rinishdagi barcha darajada uyg'unlashgan) hayot faoliyati qonuniyatlarini ular hayoti kechadigan tabiiy muhitda inson omiliniig ta'sirini hisobga olgan holda o'rganadigan fandir (V.A.Radkevich,1977).

Tirik tabiat qanday tuzilgan qaysi qonunlar asosida mavjud va rivojlanadi inson ta'siriga qanday javob beradi - bularning barchasi ѐkologiyaning predmeti hisoblanadi. Hozirgi kunda ѐkologiyaning asosiy vazifalari quyidagilardir:

- hayotning tashkil topish qonuniyatlarini inson ta'sirini hisobga olgan holda o'rganish;
- biosferadagi jarayonlarni o'rganish, boshqarish, bashorat qilish, insonning yashash muhitini saqlash;
- biologik resurslardan oqilona foydalanishning ilmiy asoslarini yaratish va boshqalardir.

Dastlabki ѐkologik tushunchalar qadimgi yunon olimlari asarlarida qayd qilingan. O'simlik va hayvonlar, inson hayotining atrof-muhit bilan bog'liqligi Ibn Sino, Beruniy asarlarida yoritilgan. XIX-asrga kelib ѐkologiya ilmiy asosda YAA.Gumboldt, J.Lamark, K.Rulѐ, CH.Darvin, Ѐ.Gekkel asarlarida yoritildi. Lekin ѐkologiyaning fan sifatida shakllanishi XX-asr boshlarida amalga oshdi. Dastlab o'simliklar va hayvonlar ѐkologiyasi, XX asrning 20- yillaridan ijtimoiy ѐkologiya va inson ѐkologiyasi rivojlandi. 20-30 yillarda O'rta Osiyo Davlat universitetida D.N.Kashkarov va E.P.Korovinlarning ѐkologiya-geografiya maktabi tashkil ѐtilib, o'lkamiz tabiatini ѐkologik tadqiq qilish boshlandi. 1940-50 yillarda sobiq ittifoqda ѐkologik biliilarning rivojlanishi so'sayib qoldi. Atrof-muhit holati ѐsa o'zgara boshlagan XX asrning 60-yillariga kelib ѐkologiya jadal rivojlandi, turli yangi yo'nalishlari vujudga keldi.

Umumiy ѐkologiya barcha organizmlarning alohida darajalarda muhit sharoitlari bilan o'zaro munosabatlari ѐkologiyasini o'rganadi. Hozirgi kunda ѐkologiyaning ijtimoiy va tabiiy fanlar chegarasida rivojlanayotgan tarmoqlariga inson ѐkolgiyasi, sotsial ѐkologiya, geoѐkologiya, global ѐkologiya va boshqalar kiradi. Ѐkologiya umumbiologik fan bo'lib, barcha xususiy biologik fanlar

tarkibiga kiradi va o’z navbatida kompleks biologik fanlarning asosi hisoblanadi. Èkologiyaning ijtimoiy va tabiiy fanlar chegarasida vujudga kelgan tarmoqlari fanlar tizimida o’ziga xos o’rni ègallaydi.

Organizmni o’rab turuvchi va u bilan doimiy munosabatda bo’ladigan tabiatning bir qismi hayot muhiti deb ataladi. Er yuzida organizmlar to’rt hayot muhitini o’zlashtirganlar - suv, havo,tuproq, organizm. Organizmlarning yashashi uchun bir yoki bir nechta muhitlar zarurdir. Hayot muhitlari alohida yashash muhitlariga bo’linadi. Yashash muhiti- hayot muhitining geografik va èkologik xususiyatlari bilan ajraluvchi qismidir. Masalan: Suv hayot muhitida chuchuk va sho’r suvli yashash muhitlari, oqar va ochmas suv yashash muhitlari ajratiladi. Yashash muhiti yashash joyi va biotoplarga bo’linadi.

Hayot muhitining organizmlarning yashash faoliyatiga ta’sir ko’rsatadigan èlementlari yoki xususiyatlari muhit omillari yoki èkologik omillar deb ataladi. Jonsiz (abiotik) tabiat omillari, jonli (biotik) tabiat omillari va inson (antropik) omil guruhlari ajratiladi. Èkologik omillar barcha organizmlar va insonning hayotiga turli darajada ta’sir ko’rsatadi. Organizmlarning (shu) jumladan insonningd èkologik omillar ta’siriga moslashuv xususiyatlari yig’indisi adaptatsiya deyiladi. Èkologik omillar ta’siriga chidamli va er yuzida tarqalgan organizmlar èvribiont.

## 3. Èkologik javobgarlik tushunchasi.
## Èkologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish (O’zR JK 193- moddasi)

Ushbu jinoyatning ob’ekti èkologik xavfsizlik, ya’ni qurilish ob’ektlarini ishga tushirish, ulardan foydalanish hamda atrof tabiiy muhitni asrash, er, suv, er osti boylik-lari va shu kabilardan oqilona foydalanish va boshqa faoliyat sohasidagi ijtimoiy munosabatlardir. Inson hayoti, sog’lig’i jinoyatning qo’shimcha ob’ekti bo’lishi mumkin.

## Atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to’g’risidagi ma’lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko’rsatish (O’zR JK 194- moddasi)

Ushbu jinoyatning ob’ekti atrof muhit, flora va faunadir, shuningdek inson sog’lig’i yoki hayoti qo’shimcha ob’ekt bo’lishi mumkin.

Ma’lumotlarni yashirish deganda èkologiyaga salbiy ta’sir ko’rsatgan avariyalar yoki atrof muhitning radiatsiyaviy, kimyoviy, bakteriyaviy ifloslanganligi yoxud odam xayoti yoki sog’lig’i uchun xavfli bo’lgan boshqacha tarzda ifloslanganligi haqidagi to’g’ri ma’lumotlarni tegishli organlarga, hokimiyat organlariga, aholiga xabar qilmaslik tushunilmog’i darkor.

**Atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini ko'rmaslik (O'zR JK 195- moddasi)**

Jinoyatning ob'ekti atrof muhit, shuningdek insonning sog'lig'i yoki hayotidir.

**Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish (O'zR JK 196- moddasi)**

1992 yil 9 dekabrda O'zbekiston Respublikasining „Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan bo'lib, u atrof muhitni muhofaza qilishning ko'pgina muammolarini tartibga soladi.

Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish deganda insonning biror-bir ishlab chiqarish yoki boshqa faoliyati bilan bog'liq holda er, atmosfera havosi, suvning tozaligi belgilangan normativlardagidan ortiq hamda ularning odamlar, flora va fauna uchun xavf tug'diradigan darajada o'zgarishi tushuniladi.

**Er osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish (O'zR JK 197- moddasi)**

Ushbu jinoyatning ob'ekti erlardan vazifasiga ko'ra foydalanish qoidalari, atrof muhitdan foydalanishning belgilangan tartibidir. Er — davlat mulki — umummilliy boylikdir, undan oqilona foydalanish zarur, u davlat tomonidan muhofaza ètiladi hamda oldi-sotdi predmeti hisoblanmaydi, ayirboshlanmaydi, hadya ètilmaydi, garovga qo'yilmaydi, O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan Hollar bundan mustasnodir (O'zbekiston Respublikasi Er kodeksining 16-moddasi).

**Èkinzor, o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast etkazish yoki ularni nobud qilish (O'zR JK 198- moddasi)**

Jinoyat ob'ekti èkinzor, o'rmonlar yoki boshqa dov-daraxtlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish bo'yicha manfaatlardir.

Èkinzor deganda urug' yoki ko'chatlar èkib o'stirilgan o'simlik maydonlari tushuniladi.

O'rmon - er, daraxt, buta va boshqa o'simliklar, hayvonlar, parrandalar, mikroorganizmlar va boshqa tabiat unsurlarining jamidir.

**O'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish (O'zR JK 199- moddasi)**

Jinoyatning ob'ekti èkologik xavfsizlik, qishloq saligi (paxtachilik, sholichilik) va h. k. dir.

Ob'ektiv tomondan jinoyat o'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalariga qarshi kurash talablarini buzish og'ir oqibatlarga sabab bo'lishida ifodalanadi. Mazkur modda blanket dispozitsiyalidir. Shu munosabat bilan ko'rib, chiqilayotgan jinoyatni kvalifikatsiya qilishda har bir alohida ishda o'simliklarning kasalliklari yoki zararkunandalariga qarshi kurashning qaysi talabi buzilganligini aniklash zarur. Bular kasalliklar, turli zararkunandalar tarqalishining oldini olish va ularni tugatishga qaratilgan agrotexnik, kimyoviy, mexanik tadbirlarni o'tkazish bo'yicha talablardir. Jinoiy javobgarlik o'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalariga qarshi kurash talablarining buzilishi og'ir oqibatlarga sabab bo'lgan hollarda vujudga keladi

**Veterinariya yoki zootexnika qoidalarini buzish**
**(O'zR JK 200- moddasi)**

1993 yil 3 sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining „Veterinariya to'g'risida"gi qonuni hayvonlarni muhofaza qilishning ko'pgina masalalarini tartibga soladi.

Jinoyatning ob'ekti qishloq xo'jaligi, chorvachilik manfaatlaridir.

Hayvonlar va parrandalarning èpidemiya kasalliklari tarqalishi deganda, turli joylarda yuqumli kasallikning tarqalish o'choklari paydo bo'lganligi tushuniladi. Ayrim hollarda bu qoidalarning buzilishi chorva va parrandalarning kasallanishiga yoki shu kasalliklar tarqalishining oldini oluvchi èpidemiyaga qarshi davolash tadbirlarini o'tkazmaslikda namoyon bo'ladi.

**Zararli kimeviy moddalar bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzish**
**(O'zRJK201-moddasi)**

Ushbu jinoyatning ob'ekti atrof muhit va qishloq xo'jaligi manfaatlari, shuningdek, insonning sog'lig'i yoki hayotidir.

Qoidalarning buzilishi deganda qonunda taqiklangan kimyoviy vositalar, dorilarni ishlab chiqarish yoki ishlab chiqarilishiga ruxsat berilgan kimyoviy vositalar va dorilarni belgilangan tartibini buzgan holda ishlab chiqarish tushuniladi.

Zararli kimyoviy modda bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzgan shaxsning harakatlari, bu harakatlar odamlarning ommaviy kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoxud boshqacha og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan taqdirda mazkur jinoyatning tarkibini hosil qiladi.

**Hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish**
**(O'zR JK 202- moddasi)**

Mazkur jinoyatning ob'ekti hayvonot yoki o'simlik dunyosini asrash va ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan manfaatlardir.

Jinoyatning predmeti yovvoyi va uy hayvonlari, parrandalar, har qanday baliqlar, shuningdek, boshqa turdagi hayvonlar, turli xildagi dorivor, iste'molbop, manzarali o'simliklarning yovvoyi turlari hisoblanadi.

Ovchilik qoidalarini buzish tegishli organlarning maxsus ruxsatisiz ov qilish, belgilanmagan joyda ov qilish, man qilingan vaqtda, taqiqlangan qurollar bilan ov qilish va h.k.da ifodalanadi.

Baliqchilik qoidalarini buzish baliqlarni uvildiriq sochish paytida, taqiqlangan joylarda, qo'riqxonalar xududida, belgilangan normadan ortiq miqdorda ovlash, baliqlarning taqiqlangan zotlarini ovlash kabilarda ifodalanadi.

**Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish**
**(O'zR JK 203- moddasi)**

O'zbekiston Respublikasida suv yoki suv havzalaridan foydalanish qoidalarini tartibga soluvchi idoraviy, hujjatlarning butun bir tizimi mavjud. O'zbekiston Respublikasining „Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi 1993-yil 6- maydagi qonuni, Vazirlar Mahkamasining 1993- yil 3- avgustdagi „O'zbekiston

Respublikasida suvdan limitli foydalanishning muvaqqat tartibi to’g’risida"gi 385-qarori; Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 7-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan „O’zbekiston Respubli-kasida suvni muhofaza qilish tegralari va magistral kanallar hamda kollektorlar, shuningdek, ichimlik suv ta’minoti, davolash va madaniy sog’lomlashtirish ahamiyatidagi suv manbalari to’g’risida"gi Nizom va boshqa normativ hujjatlar shular jumlasidandir.

**Alohida muhofaza ètiladigan tabiiy hududlarning tartibini buzish (O’zR JK 204- moddasi)**

Ushbu jinoyatping ob’ekti alohida muhofaza ètiladigan tabiiy hududlarning belgilangan tartibidir.

1993 yil 7 mayda O’zbekiston Respublikasining „Alohida muhofaza ètiladigan tabiiy hududlar to’g’risida"gi Qonuni qabul qilingan bo’lib, unga ko’ra: „Alohida muhofaza ètiladigan tabiiy hududlar - bu erlar va suv kengliklari (akvatoriylar)ning ustuvor èkologik, ilmiy, madaniy, èstetik, sanitariya-sog’lomlashtirish ahamiyatiga molik qismlaridir".

## Tayanch suzlar.

Èkalogiya xukukining axamiyati. Èkalogiya xukukining obektlari. Èkalogiya xukuki buyicha javobgarlik masalasi. Er, suv va xavoni muxofaza kilish xayvonot dunyosini muxofaza kilish.

## Kaytarish uchun savollar.

1. Èkalogiya xukuki fanini tushunchasi.
2. Èkalogiya xukuki faning funktsiyalari.
3. Èkalogiya xukuki fanidan obektlar tushunchasi.
4. Atrof-muxitni muxofaza kilishda.
5. Èkalogiya faning roli.

## 8-Mavzu. Jinoyat huquqi asoslari

### Reja:

1. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqining tushunchasi, predmeti, usush, vazifadari va tamoyillari.

2. Jinoyatning belgilari va jinoyat tarkibi èlementlarining tavsifi.

3. Jinoiy-huquqiy javobgarlik va jinoiy jazo. Jinoiy javobgarlikdan va jinoiy jazodan ozod qilish asoslari.

4. Jinoyatda ishtirokchilik tushunchasi va shakllari. Jinoyat ishtirokchilarining turlari.

5. Qilishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tavsifi

## 1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqining tushunchasi, predmeti, usush, vazifadari va tamoyillari.

Jinoiy huquq — qilmishning jinoiyligi va jazolanishini belgilovchi normalarni, jinoiy javobgarlik asoslarini, jazolar tizimini, ularni tayinlash tartibi va shartlarini, shuningdek, jinoiy javobgarliqdan va jazolanishdan ozod qilish asoslarini aks ѐttiruvchi huquqnipg asosiy tarmoqlaridan biridir.

Huquqning mazkur tarmog'i juda uzoq tarixga ѐgadir, juda qadimda, Qadimgi Rimda davlat fuqarolar hayotiga, shaxsiy mulkka va davlat tuzumiga qasd qilganlik uchun to o'lim jazo-sjacha qatoq choralar ko'rinishidagi sapktsiyalarni irodalovchi normalarni ko'zda tugardi. Bunday huquq nepal huquq deb atalardi (lotincha Penal - jazolovchi).

Qadimda rus tilida lotincha nomning o'xshashi sifatida "ugolovые" so'zi ishlatilardi. Hozirga zamon tushunchasida bu ayblash, jazolash, og'ir jazo, jinoyat uchun boshi bilan javob berishni anglatadi. Shu tariqa jinoiy huquq deganda hozirgi vaqtda jamiyatda qabul qilingan normalarni qo'pol ravishida buzganlik uchun fuqarolarni jazolovchi (qoralovchi) huquq tutushuniladi.

Jinoiy hukuq jinoiy-huquh munosabatlar doirasida vujudga keladigan ijtimoiy aloqalarni tartibga soladi. Jinoiy huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari shunlan iboratki, ular faqat jinoyat qonunni buzgan fuqarolar bilan davlat o'rtasida yuzaga keladi. Jinoiy huquq sohasiniig qariyb barcha olimlari, jinoiy huquqiy munosabatlar jinoyat sodir ѐtgan vaqtdan paydo bo'lib, sudlanganlikni olib tashlash yoki tugattishi bilan nnhoyasiga etadi, deb qayd ѐtishadi.

Ana shu xususiyat jinoiy huquq predmetini belgilab beradi.

**Jinoyat alomatlarini aks ѐttiruvchi ijtimoiy xavfli qilmishlar jnnoyat huquqinn predmetini tashkil ѐtadi. Ularga quyidagilar kiradi:**

1). shaxsga qarshi jinoyatlar;
2). jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar;
3). iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar;
4). jinoyat qonuni bilan taqiqlangan huquqqa xilof ijtimoiy xavfli qilmishlar.

Jinoiy huquq usuli qilmishning jinoiyligi va jazolanishini belgilash, shaxs, jamiyat, davlat uchun xavfli xati-harakatlarni jinoyat qonuni bilan taqiqlashdan iborat. Taqiqlarni buzish jinoiy javobgarlik va jazoni keltirib chiqaradi. Tartibga solishning bunday usulda faqat jinoyat huquqqagina xosdir.

Jinoyat huquq normalari ko'pchilik hollarda taqiqlovchi xarakterga ѐga bo'ladi. Ularda qanlay mazmun ifodalanganiga qarab jinoiy huquq normalari turli xil funktsiyalarni bajaradi. Ularning bir xillari jinoiy huquqning-umumiy qoidalarini, printsiplari va institutlarini mustahkamlab, jinoyat huquqning umumiy qismini tashkil ѐtadi. Boshqa normalar jinoyat deb topiladigan konkret jinoiy alomatlarini aniqlaydi va ular uchun jazo turlari va chegaralarini ko'rsatib beradi. Bular jinoyat huquqning maxsus qismini tashkil ѐtadi. Jinoyat huquq xuquqning

ushbu tarmog'i oldiga qo'yilgan vazifalar va funktsiyalar bilan belgilanuvchi umumiy va maxsus qismlar birligi sifatida maydonga chiqadi.

**Jinoyat huquqning vazifalari:**

1). O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini saqlash va himoya qilish;

2). shaxs, uning huquq va èrkinliklarini, jamoat tartibi va ijtimoiy xavfsizlikni muhofaza ètish;

3). jinoiy tajovuzlardan fuqarolar hayoti va salomatligini asrash;

4). insoniyatning tinchliga va xavfsizligini ta'minlash;

5). jinoyatlarning oldini olish;

6). fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasi va qonunlarga rioya ètish ruhida tarbiyalash (Jinoyat Kodeksining 2-moddasi).

1). himoyalovchi funktsiya — jinoyat huquqi predmetini tashkil ètuvchi ijtimoiy munosabatlarni himoya qilish;

2). oldini oluvchi (preventiv) funktsiya — umumiy va maxsus ogohlantirishlar bo'lib, ular natijasida shaxs jazolanish qo'rquvi ostida jinoyatlardan o'zini tiyadi;

3). tarbiyaviy (axloq tuzatish) funktsiya shaxsning ijtimoiy-ruhiy fazilatlarini qonunlarni, insoniyatning jamiyatda yashash normalariga hurmat bilan qarashga yo'naltirishni ko'zda tutadi;

4). rag'batlantiruvchi funktsiya, u jinoyat sodir ètshpdan voz kechish, jinoyat quroli bo'lib qolishi mumkin bo'lgan narsalarni ixtiyoriy ravishda topshirishga yo'naltirilgan harakatlarni davlat tomonidan maqullanishidan iborat, bu holatlar jazoni yumshatishga va hatto undan ozod qilishga olib boradi;

Hozirgi bosqichda davlatning jinoyatlarga qarshi siyosatida rivojlanishning ikki tendentsiyasi mavjud:

1). èng og'ir jinoyatlarga qarshi kurashishni ko'chaytirshp;

2). ijtimoiy xavf uncha katta bo'lmagan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik doirasini qisqartirish (masalan, mehnat faoliyatidan bosh tortganlik uchun (tekinxo'rlik) uchun, chayqovchilik uchun jazolanish ko'zda tutuvchi Jinoyat Kodeksining moddalari bekor qilingan va h.k.). Jinoiy hukuq printsiplari O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 setyabridagi N5 2012 - XII sonli Jinoyat Kodeksida o'z ifodasini topgan.

1. Qonuniylik printsipi (JK 4-moddasi) shuni bildiradiki, «sodir ètiltan qilmishning jinoiyligi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari faqat Jinoyat Kodeksi bilan belgilanadi.

Hech kim sudning hukmi bo'lmay turib jinoyat sodir qilishda ayb deb topilishi va qonunga xilof ravishda jazoga tortilishi mumkin èmas. Jinoyat sodir ètishda aybdor deb topilgan shaxs qonunda belgilangan hu'quqlardan foydalanadi va majburiyatlarni bajaradi».

2. Fuqaralarning qonun oldida tengliga printsipi (JK 5-moddasi), jinoyat sodir ètgan shaxs jinsi, ijtimoiy mavqei, irqiy va milliy mansubligi tili, diniy va siyosiy è'tiqodidan qat'iy nazar jinoiy javobgarlikta tortilishini bildiradi.

3. Demokratizm printsipi (JK 6-moddasi).Unga ko'ra «jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organchari yoki na jamoalar jinoyat sodir ètgan shaxslar axloqini tguzatish ishiga qonunda nazarda tutilgan hollarda jalb qilinishlari mumkin».

4. Insovparvarlik prnntsipi (JK 7-moddasi). Avvalo shuni qayd ètish joiki, bu ŝrintsip birinchi navbatda jinoiy tajovuzlardan shaxsni muhofaza ètishga, uning salomatligi va hayotini himoya qilishga yo'naltirilgan. Insonparvarlik printsipi shuningdek, qonunni buzgan shaxslarga ham qaratilgan. Xuddi shuning uchun ham ushbu printsipga binoan jinoiy jazo jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlashi mumkin èmas.

Insonparvarlik printsipining amal qilishi shuningdek, amnistiya bo'yicha muddatidan oldin ozod qilishda, shartli ravishda jazolashda va shu kabilarda ham namoyon bo'ladi.

5. Odillik printsipi (JK 8-moddasi) shuni anglatadiki, jinoyat sodir ètishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi odilona bo'lishi, ya'ni jinoyatning og'ir-engilligiga, aybniig va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bo'lishi kerak.

Hech kim aynan bitta jinoyat uchun ikki marta javobgarlikka tortilishi mumkin èmas».

6. Ayb uchun javobgarlik printsipi (JK 9-moddasi) "shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar" bo'lishini bildiradi.

7. Javobgarlikning muqarrarligi printsipi (JK 10-moddasi) "qilmishida jinoyat tarkibining maqsadligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shartligida ifodalanadi.

Jinoyat huquqiy printsiplari o'zaro bir-biriga chambarchas bog'liq tizimdan iborat. Qonun chiqaruvchiga, huqukni qo'llovchi organlarga va fuqarolarga qaratilgan konkret talablar shu tizimning tarkibiy èlementlaridir. Qonuniydik va odillik mazkur tizimning etakchi printsiplari sifatda maydonga chiqadi. Jinoyat huquq printsiplari ham umumiy, ham maxsus qismlar uchun ham muhim asoslar bo'lib hisoblanadi. Umumiy qismda ask ètgan tub mohiyatli tushunchalarning mag'zini chaqmay turib, maxsus qism normalarini fahmlab olish qiyin va hatto mumkin ham èmas. Yana bir gap. Jinoyat huquq jinoyat tarkibi bo'lmaganda huquqni boshqa tarmoqlari bilan. ya'ni jinoyat protsessi va jinoyat-ijroiya huquqi bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Jinoyat tushunchasi davlatning vujudga kelishi bilan paydo bo'ltan. Ibtidoiy tuzum davrlarvda urf-odatlarni buzish jinoiy jazo, ya'ni davlatni majburlov chorasini keltirib. Jinoyat so'zining kelib chiqishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u davlatda qabul qilingan «qonun»ni buzgan odam ma'nosini anglatadi. Jinoyatning yuridik ma'nodagi ta'rifi ilk bor 1789 yiddagi Inson va fuqaro haq-huquqlari va èrkinliklari Deklaratsiyasida berilgandi.

Jinoyatning hozirgi zamon tushunchasi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 14-moddasida ifodalangan. «Ushbu Kodeks bilan taqiqlangan, aybli ijtimovy xavfli qilish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash taxdidi bilan jinoyat deb topiladi.

Ushbu Kodeks bilan ko'riqlanadigan ob'ektlarga zarar etkazadigan yoki shunday zarar etkazshp real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish deb topiladi».

**Jinoyat belgilari:**

Jinoyatning birinchi belgisi – ijtimoiy xavflilik. Ijtimoiy xavflilik jinoyatning èng muhim belgilaridan biri hisoblanib, aynan shu bilan u ma'muriy xati-harakatdan farqlanadi- Ijtimoiy xavflilik mohiyati va darajasiga karab jinoyatlar quyidagalarga bo'linadi:

a). ijtimoiy xavf katta bo'lmagan jinoyatlar, ular uchun qonunda ozodlikdan mahrum qilishga nisbatan engilroq jazo nazarda tutilgan;

b). uncha ogir bo'lmagan jinoyatlar ular uchun qonunda besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo, shuningdek, èxtiyotsizlik orkali sodir ètilib, qonunda ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan;

v). ogir, kasddan sodir ètilgan jinoyatlar, ular uchun qonunda besh yildan ortiq, lekin o'n yiddan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan;

g). o'ta ogir, qasddan sodir ètilgan jinoyatlar, ular uchun qonunda o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki o'lim jazosi nazarda tutilgan.

Jinoyat Kodeksining 15-moddasida jinoyatlarni tasnifi kursatib berilgan.

Jinoyatning ikkinchi belgisi uning xukukka xilofligidadir. Ushbu belgiga muvofiq u yoki bu qilmish, agar jinoyat qonunida uni sodir ètish taqiqlangan bo'lsagina, jinoiy kilmish deb topilishi mumkin. Paradoksga qarangki, hatto qilmish ochiq ijtimoiy xavfli xarakterga èga bo'la turib, ayni paytda Jinoyat Kodeksida tegishli modda bo'lmasa, mazkur qilmish jinoyat deb topilishi mumkin èmas. Haqiqatan ham o'zi yo'q bo'lgan «qonunnn buzish» mumkinmi? Masalan, xuddi shu sababdan ayollarga hamla qilib, boylik orttirish maksadida ularning o'rim sochlarini qirqib ketuvchi shaxslar uzoq vaqtgacha jazodan qutulib yurishgandi.

Aybni mavjudligi jinoyatning uchinchi belgisidir. Uning mohiyati shundan iboratki, ijtimoiy xavfli, jinoyat qonun bilan taqiqlangan qilmish faqat uni sodir ètgan shaxsning aybi isbotlanganidan keyingina jinoyat deb hisoblanadi.

Jinoyatning to'rtinchi belgisi uning jazolanishidan iborat. Shuni kayd ètish joizki, bu belgi xamisha ham mustaqil belgi sifatida ajratib ko'rsatilavermaydi. U jinoyatning ikkinchi belgi- huquqqa qarshi karatilganlik alomatini to'ldiradi, deb xisoblashadi. Biroq bunda Jinoyat Kodeksida jazolash ko'zda tutilgan qilmishlar jinoyat deb xisoblanishi «unitib» qo'yiladi.

Sanab utilgan belgilar jinoyatlarning mohiyatini ochib beruvchi muxim tavsiflardir. Ijtimoiy xavflilik mohiyatini, noqonuniy qilmishni sodir ètgan

shaxsning ayblilik darajasini aniqlash, jazo hajmini belgalash uchun jinoiy qilmish bo'yicha bir qator qo'shimcha ma'lumotlarni aniqlash kerak bo'ladi. Bu ma'lumotlar jinoyat tarkibini tashkil ètadi.

Jinoyat-tarkibi - bu ijtimoiy xavfli qilmishning ob'ektiv va sub'ektiv èlementlari yig'indisidan iborat. Jinoyat tarkibini aniqlash uni tug'ri baholash uchun kerak bo'ladi.

Jinoyatlarni baholash sodir ètilgan jinoiy qilmish bilan sodir ètilgan taqiqlangan kilmish bayoni ifodalangan va jazo xajmi belgilanadigan Jinoyat Kodeksi moddasi o'rtasidagi muvofiqlikni topishdan iborat. Masalan, birovning mulkini ugirlash jinoyatini sodir ètilgan. Ushbu noqonuniy qilmish bayoni va shu bo'yicha jazo xajmi Jinoyat Kodeksining 169-moddasida keltirilgan. Unga ko'ra ushbu kilmish *«o'girlik»* deb baholanadi. Mulkni ochiqdan-ochiq talon-taroj qilish Jinoyat Kodeksining 66-moddasiga binoan «talonchilik» deb baholanadi.

**2. Jinoyat tarkibi jinoyatlarni tasniflash.**

- jinoyat ob'ekti;
- jinoyatni ob'ektiv tomoni;
- jinoyat sub'ekti;
- jinoyatni sub'ektiv tomon.

Jinoyat ob'ekti jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlardan iborat.

Jinoyatlar ob'ektlarining uch turi mavjud:

1). umumiy ob'ekt - jinoyat qonuni bilan quriklanadigan barcha ijtimoiy munosabatlar yigindisi.

2). Maxsus ob'ekti - jinoyat qonuni bilan muhofaza ètiladigan o'z mohiyati bo'yicha bir xildagi ijtimoiy munosabatlar (Jinoyat Kodeksi maxsus qismida qancha bob bo'lsa - shuncha maxsus ob'ektlari bor);

3). jinoyatning bevosita ob'ektlari jinoyatlarning konkret turiga bevosita qaratilgan ijtimoiy munosabatlardan iborat (Jinoyat Kodeksi maxsus qismining har bir moddasi bevosita ob'ektni ko'rsatadi).

Jinoyat obektidan jinoiy tajovuz predmetini farqlay bilish kerak. Jinoiy tajovuz predmeti jinoyatni tajovuz qiladigan bitta ayrim predmetdan iborat. Masalan, jinoyatni o'zganing kvartirasiga yashirincha kirib, televizorni o'g'irladi. Televizor -jinoyat predmetidir, ushbu holatda Jinoyat Kodeksining 169-moddasiga muvofiq mulk jinoyat ob'ekti hisoblanadi.

Jinoyat ob'ektini aniqlash jinoyat tarkibini aniqlashning boshlangich (tayyorgarlik) bosqichi bo'lib xizmat kiladi.

Ob'ektiv tomon — bu "ob'ektiv voqeliqda qilmishni amalga oshiruvchi shaxsning ongli irodali harakati bo'lib, atrof dunyoda muayyan o'zgarishlarni keltirib chiqaradi".

Ob'ektiv tomonning belgilariga quyidagilar kiradi: 1) ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik; 2) jinoiy oqibat; 3) ijtimoiy xavfli harakat bilan ro'y bergan oqibat ruy bergan okibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishi; 4) jinoyat sodir ètilgan

vaqt; 5) jinoyat sodir ètilgan joy: 6) jinoyat sodir ètilgan muhit; 7) jiyuyatni sodir ètish usuli; 8) jinoyatni sodir ètish quroli; 9) jinoyat sodir ètish vositasi.

Qilmish (harakat yoki harakatsizlik) — bu jinoyat ob'etiv tomonining tashqi holatini belgilaydi. Qilmish fakat xohish-iroda bilan amalga oshirilgan va qonun bilan taqiqlanganlagina ijtimoiy xavfli mohiyatga èga bo'ladi.

Zararli oqibatlar jinoiy tajovuz ob'ektlarida jamiyatga qarshi o'zgarishlar, ya'ni ham mulkiy, ham ma'naviy zarar, jismoniy va ruhiy zarar, jamoat tartibiga karshi, mehnat qarshi jinoyatlar va xokazolar.

Sababiy boglanish deganda bir xodisa muayyan sharoitlarda mukarrar ravishda ikkinchisini keltirib chiqaradigan hodisalarning o'zaro boglikligi tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, sababiy aloqa hodisalar holati va xususiyatlarini o'zgartirishga olib boruvchi yoxud yangi hodisalarni keltirib chiqaruvchi hodisa.larning bir-biriga o'zaro ta'sirdir. Sababiy bog'lanish jinoyat ob'ektiv tomonining zaruriy belgilaridan hisoblanadi. Chunonchi, agar jinoyat qonuniy bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmish sodir ètilib, uning zararli oqibatlari mavjud bo'lgani holda ularning birinchisi bulgan ikkinchisi o'rtasida sababiy bog'lanish bo'lmas èkan, jinoyatning ob'ektiv tomoni ham bo'lmaydi.

Kilmish bilan uning zararli oqibatlari o'rtasidagi sababiy bog'liqlikni aniqlash jinoyat bo'yicha surishtiruv ishlarini olib borish jarayonida tergov organlarining èng muhim vazifalaridandir.

Jinoyatni sodir ètish usuli shaxs o'zining jinoiy maqsadini amalga oshirishda foydalanadigan usul, uslub, muayyan harakat yoki ularning yigindisidan iborat.

Jinoyatni sodir ètish vaziyati deyilganda sodir ètilgan qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasiga ta'sir o'tkazgan va shu bilan bog'liq ravishda jinoiy-huquqiy ahamiyat kasb ètgan inson, moddiy predmetlar, tabiiy ofatlar va boshqa omillar o'zaro ta'sirining sodir ètilgan jinoyatning vaqt bilan chegaralangan makonidir.

Jinoyat qonuni bilan taqiqlangan qilmish ro'y bergan makon jinoyat sodir ètilgan joy deb tushuniladi.

Jinoyat sodir ètilgan vaqt jinoiy qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi aniqlashda ahamiyatta èga. Masalan, tungi vaqtda sodir ètilgan jinoyatlar kunduzgi vaqtdagilariga karaganda ko'proq ijtimoiy xavf tug'diradi. Vaqt shuningdek, jinoyatning davomiyligini ham ko'rsatib beradi.

Jinoyatni sodir ètish vositalari — narsalar va moslamalar. Jinoyatchi ular vositasida jinoyat ob'ektiga zarar etkazadi.

Jinoyat kurollari — bular jinoyat sodir ètishga yordam beradigan xamda ijtimoiy munosabatlar èlementlariga ta'sir o'tkazadigan narsalardan iborat. Ba'zan birgina narsaning o'zi turli sifatlarga èga bo'lishi mumkin (chunonchi, pistolet — kasddan odam o'ddirishda jinoyat quroli vazifasini utaydi, ayni paytda uning o'zi noqonuniy saklanganda jinoyat vositasi xisoblanadi).

Jinoyat qonuni bilan belgilangan muayyan yoshga etgan va Jinoyat Kodeksi maxsus qismining konkret normalarida mustahqamlangan alomatlarga èga bo'lgan o'z qilmishga o'zi javob bera oladigan jismoniy shaxs jinoyat sub'ekti deb topiladi.

Jinoyat sub'ektini belgilari:

- jismoniy shaxs;

2). aqli rasolik (o'z harakatlarining ijtimoiy xavflilik mohiyatini idrok ètish qobiliyati va o'z xatti-harkatlarini boshqara olish layoqati);

3). jinoiy javobgarlik yoshiga etganlik (barcha jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik yoshi 16 yoshdan, o'ta og'ir jinoyatlar uchui jinoiy javobgarlik — 14 yoshdan boshlanadi, aybni ogirlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish - 13 yosh).

Bular umumiy belgilar bo'lib, ulardan tashqari yana jinoyat-huquqiy maxsus qismi normalarini dispozitsiyasida ko'rsatilgan qo'shimcha belgilar ham mavjud.

**3. Jinoiy xukukbuzarlik va jinoiy jazo.**

1). ***Ayb*** — bu shaxsning sodir ètilgan jinoyatga bo'lgan ruhiy munosabatdir.

***Ayb shakllari*** — jinoyat qonuniy bilan aniqlangan jinoiy qilmishni sodir ètayotgan shaxsning shu qilmishga munosabatini xarakterlovchi ong va iroda èlvmentlarining muayyan tarzdagi qo'shilishidir. Ayb qasddan va èxtiyotsizlik shaklida bo'lishi mumkin.

***Sabab*** — shaxsni jinoiy qilmishni sodir ètganga qatiy ki-rishishga da'vat ètgan ongli xohish-istak. Sabab hamisha jinoyatdan oldin paydo bo'ladi va uning maqsadini takozo ètadi. Sabablar yig'indisi jinoiy harakat sabablarini tashkil ètadi.

***Maqsad*** — shaxs jinoiy qilmishi sodir ètar èkan, u intiladigan xayolidagi natijadir, Sabab va maqsad birgalikda aybni shakllantiradi.

Sabab va maqsad jazoni yumshatuvchi holatlar (masalai, ogir hayotiy ahvol) bo'lishi ham, shuningdek, jazonn ogirlantiruvchi (masalan, milliy, irqiy, diniy nafrat yoki dushmanlik sabablariga ko'ra, shuningdek, boshqa jinoyatni yashirishi yoki uning sodir ètilishini engillashtirish maqsadida jinoyat sodir ètish) holatlar ham bo'lishi mumkin.

Jinoyatlar tarkiblarining turlari. Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyatlar tarkiblarinint bir nechta tasniflari qabul qilingan.Ular alohida tarkiblar va ularning xususiyatlarini batafsilroq aniqlashga yordam beradi. Bu èsa o'z navbatida sodir ètilgan jitoyatni tasniflashning asoslanganligi va to'g'riligini belgilab beradi.

Ijtimoiy xavflilik darajasiga bog'liq ravishda jinoiy tarkiblari quyidagi turlarga bo'linadi: 1). jinoyatning asosiy tarkibi; 2). engillashtiruvchi holatlari bo'lgan jinoyat tarkibi (imtiyozli); 3). ogirlashtiruvchi holatlari bo'lgan (kvalifsha-ŝiyayaashgirilgan) jinoyag tarkibi; 4).alohida kvalifikatsiyalashtirilgan jinoyat tarkibi.

**Bayon ètish usuliga ko'ra jinoyat tarkiblari oddiy sodda va murakkab tarkiblarga bo'linadi:**

a). jitoyatning *oddiy tarkibi* bir ob'ektga tajovuz ètgan bir qilmish bayonini aks èttiradi. Masalan, yolgon xabar berish jinoyatini tarkibi "jinoyat to'g'risida bila turib, yolgon xabar berish" deb belgilanadi (Jinoyat Kodeksining 237-moddasi).

b). jinoyatning murakkab tarkibi yoxud qator oddiy tarkiblar jinoyatni tashkil *ètuvchi* yagona tarkibni qamrab oluvchi yoki aybning ikki shaklini qamrab oluvchi

bir yo’la ikki yoki undan ortik ob’ektlar yoxud ikki yoki undan ortik kilmishlar yoki bir necha mukobil alomatlar.

v). muqobil tarkiblar faqat bittasi ham jinoyat tarkibini è’tirof ètish uchun etarli bo’lgan bir qator jinoiy oqibatlar bayoni ifodasidan iborat. Jumladan, monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobtarlikni nazarda tutuvchi Jinoyat Kodeksining 183-moddasi, bu jinoyat tarkibi monopoliyaga qarshi faoliyat olib borish vakolati berilgan organga axborotlar bermaslik holatini hamda shunday qilmishlar uchun ma’muriy jazo qo’llanilganidan keyin bo’lishiga qaramay haqiqatga to’g’ri kelmaydigan ma’lumotlarni bila turib takdim qilish qamrab olishini ko’rsatadi.

**Tuzilishiga ko’ra jinoyat tarkiblari quyidagilarga bo’linadi:**

*a). moddiy tarkib jinoyatni* ob’ektiv tomoni ijtimoiy xavfli qilmishdir ro’yxatini aks ètiruvchi va shu qilmishlar sababli vujudga keladigan zararli oqibatlar ko’rsatib beruvchi jinoyat tarkiblari;

*b). formal tarkib jinoyatini* ob’ektini tomoni odatda bitta ijtimoiy xavfli qilingan bayon qyushb, jitsoyat tamom bo’lgan paytni aniqlab bersada, uning zararli oqibatlarini albatga ko’rsatib beravermaydigan jinoyat tarkiblaridir. (Masalan, «Temir yo’liing harakatlanadigan tarkibini, havo, dengiz yoki daryo kemasini olib qochish yoki ègallab olish» to’g’risidagi Jinoyat Kodeksining 264-moddasi).

*v). kesik tarkibli jinoyatlar* — ob’ektiv tomoni tamom bo’lmagan ijtimoiy xavfda qilmishni tasvirlaydi va u ketidan zararli oqibatlarni keltirib chiqarmasada, uni tugallangan jinoyat sifatida baholaydi.

Jinoyat tarkibini barcha èlementlari muhim ahamiyatga èga bo’ladi va agar ulardan birortasi bo’lmasa, jinoyat tarkibi ham bo’lmaydi. Jinoyat tarkibi èlementlarining mavjudligini tasdiqlovchi dalillarni to’plash va isbotlash surishtiruv organlarining bosh vazifasidir. Jinoyat tarkibining ahamiyati shundan iboratki, u qilmishning ijtimoiy xavflilik mohiyatini, ushbu qilmishni sodir ètgan shaxs aybining dara-jasini jinoiy javobgarlik turini va jazoni to’g’ri belgilashga xizmat qiladi.

Jinoiy javobgarlik — bu jamiyatda qabul qilingan hukuq normalariga zid harakatlar kilgan aybdor shaxs uchun sudlanganlik oqibatlardan iborat. Jinoyat tarkibi barcha alomatlarini o’zida aks èttirgan qilmishni sodir ètish jinoiy javobgarlik uchun asos bo’ladi. Faqat jinoyat qonunlariga zid qilmishlar uchunginga jinoiy javobgarlik yuzaga keladi.

Jinoiy jazo — jinoyat sodir ètishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qullaniladigan va mahkumni qonunda konunda nazarda tutilgan muayyan huquq va èrkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdai iborat majburlov chorasidir (Jinoyat Kodeksining 42-moddasi).

Jinoiy jazo maxsus qism normalaridagi sanktsiyalarni ko’llashdan iborat.

Jinoyat javobgarlik tushunchasi jinoiy jazo tushunchasi bilan bir xil ma’noni anglatmaydi:

1). vaqt bo’yicha jinoiy javobgarlik hamisha jinoiy jazodan oldinda yuradi;

2). jinoiy javobgarlik jazosiz ham bo'lishi mumkin (masalan, shartli hukm qilinganda);

3). jinoiy javobgarlik jinoiy qilmishning ob'ektiv huquqiy oqibatidir va binobarin, biror-bir kimsaning xohish-irodasisiz, aotomatik suratda, jinoiy qonun bilan ziddiyatga borgan zahoti vujudga keladi.

Jinoiy jazo sub'ektiv xarakterga ѐga bo'lib, uning vujudga kelishi va xajmi maxsus vakolatli organlar irodasiga boglik.

4). jinoiy javobgarlik huquqqa zid qilmishni sodir ѐtishda aybdor bulgan shaxsni davlat nomidan qoralashdan iborat. Bundan farkli o'laroq, jinoiy jazo sanktsiya ko'rsatgan jazolarni ko'llash bilan sud hukm bo'yicha tayinlanadigan davlat ta'siri (majburlovi) chorasidir.

**Jinoyat va xuqukidagi sanktsiyalar:**

1). jazoning faqat yuqori chegarasini ko'rsatuvchi sanktsiyalar (masalan, Jinoiy Kodeksining «Ozodlikdan mahrum qilish joylaridan qochish» deb nomlangan 222-moddasi beti yilgacha ozodlikdan mahrum qilishni nazarda tutadi),

2). jazoning pastki va yuqoridan chegaralarini ko'rsatuvchi sanktsiyalar (chunonchi, «Kasddan odam o'ldirish» to'g'risidagi 97-moddasi Jinoyat Kodeksining o'n yildan o'i besh yilgacha ozodliqdan mahrum ѐtishni nazarda tutadi);

3). muqobil sanktsiyalar (masalan, 166-moddada «talonchilik, ya'ni o'zganing mulkini ochiqdan-ochiq talon-taroj qilish —*uch* yilgacha axloq tuzatash ishlari yoki mol-mulk musodara qilinib yoki musodara qilinmay, uch yilgacha ozodliqdan mahrum qilish bilan jazolanadi» deyiladi).

Hozir amalda bo'lgan Jinoyat Kodeksida mutlaq sanktsiyalar aks ѐtmagan.

Jazo turlari Jinoyat Kodeksining 43-moddasida ko'rsatab o'tilgan. Utbu moddada jinoiy jazolarning (jarimadan to o'lim jazosigacha) o'nta turi sanab o'tilgan. Qonun chiqaruvchi ularni asosiy va qo'shimcha jazo turlariga ajratgan. Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish va mol-mulkni musodara qilish — qo'shimcha jazo choralari katoriga kiritish.

**Jinoiy javobgarliqdan ozod qilish asoslari:**

1). Shaxs javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi sababli jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi. Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar uchun - uch yil: uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun javobgarlik muddati — besh yil; ogir jinoyatlar uchun — o'n yil; o'ta og'ir jinoyatlar uchun javobgarlik muddati — o'n besh yil. Tinchlik va insoniyatnint xavfsizligaga karshi sodir ѐtgan jinoyat shaxslarga nisbatan javobgarlik ozod kilish muddati qo'llanilmaydi (Jinoyat Kodeksining 64-moddasi).

2). Ishni tergov qilish yoki sudda kurish vaqtida sharoit o'zgarganligi tufayli sodir ѐtilgan qilmish o'zining xavfliligini yo'qotgan deb topilsa, jinoyat sodir ѐtgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin (Jinoyat Kodeksining 65-moddasi).

3). Ijgamoiy xalfi katta bo’lmagan yoki uncha ogir bo’lmagan jinoyatni birinchi marta sodir ètgan shaxs, agar jinoyat sodir qilingandan keyin jinoyat tufayli keltirilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilib, aybini bo’yniga olish to’g’risida arz qilgan, chin ko’ngildan pushaymon bo’lgan va jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan bo’lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin (Jinoyat Kodeksining 66-moddasi).

4). Jinoyat sodir ètilgan shaxs xukm chikarilgunga kadar uz xarakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va o’z harakatlarini boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka chalinib qolgan bo’lsa, javobgarlikdan ozod qnlinadi (Jinoyat Kodeksining 67-moddasi).

5). Jinoyat sodir ètgan shaxs amnistiya akti asosida javobgarliqdan ozod qalinishi mumkin (Jinoyat Kodeksining 68-moddasi).

**Jinoiy jazodan ozod qilish asoslari:**

1. Jinoyat sodir ètgan shaxsga nisbatan sud ayblov hukmini ijrosi utib ketganligi munosabati bilan jazoni utashdan ozod qilinishi mumkin. Sud ayblov hukmi muddatning o’tib ketishi jazodan ozod qilish uchun asos bo’luvchi muddatlarning o’tib ketishiga o’xshaydi (Jinoyat Kodeksining 69-moddasi).
2. Ozodlikdan mahrum qilish muddatini o’tayotgan shaxslar sud hukmi bo’yicha muddatidan ilgari — shartli ozod qilinishlari mumkin (Jinoyat Kodeksining 73-moddasi).
3. Jinoyat sodir ètgan shaxs agar ish sudda ko’rilayotgan vaqtgacha sharoit o’zgardi yoki shaxs namunali xulqi, mehnatga yoki o’qishga halol munosabati bilan o’zini ko’rsatib, ijtimoiy xavfliligini yo’qotdi deb è’tirof ètilsa, sud uni jazodan ozod qilishi mumkin (Jinoyat Kodeksining 70-moddasi).
4. Ijtimoiy xavfi katta bo’lmagan yoki, uncha og’ir bo’lmagan jinoyati birinchi marta sodir ètgan shaxs, agar u jinoyat sodir ètganidan keyin etkazilgan zararni bartaraf ètib, o’z ixtiyori bilan aybini bo’yniga olish tug’risida arz qilgan bo’lsa, sud uni jazodan ozod qilishi mumkin (Jinoyag Kodeksinilg 71-moddasi).
5. Agar shaxs ijtimoiy xavfi katta bo’lmagan yoki uncha og’ir bo’lmagai jinoyatni; sodir ètgan bo’lsa, sud jazoning o’talmagan qismini engilroq jazo bilan almashtirishi mumkin. Bunday almashtirish hukm qilingan shaxs jazoning kamida uudan bir kismini o’tgandan keyii ro’y beradi (Jinoyat Kodeksining 74-moddasi III 2-qism, “a” bandi).

**4. Jinoyatda ishtirok ètish tushunchalari va uning turlari.**

Jinoyatda ishtirokchilik. Jinoyat Kodeksining 27-moddasiga muvofiq «ikki yoki undan ortiq shaxsning jinoyat sodir ètganda birgalashib qasddan jinoyat sodir ètish ishtirokchilik deb topiladi».

Ishtirokchilik shakllari. Oddiy ishtirokchilik, murakkab ishtirokchilik, uyushgan guruh, jinoiy uyushma, jinoyatda ishtirokchilik shartlari deb topiladi.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirmay jinoyatni sodir ètishda qatnashishi oddiy ishtirokchilik deb topiladi.

Ikki yoki undan ortik shaxsning oldindan til biriktirib jinoyat sodir ètilishida ishtirok qilish  murakkab ishtirokchilik deb topiladi.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhga birlashish uyushgan guruh deb topiladi (Jinoyat Kodeksining 29-moddasi).

Ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug’ullanishi uchun oldindan birlashishi jinoiy uyushma deb topiladi.

Bajaruvchi (bajaruvchilar) — jinoyatchi bevosita to’la qisman sodir ètgan yoxud ushbu Kodeksiga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin bo’lgan shaxslardan yoki boshqa vositalardan foydalanib, jinoyat sodir ètgan shaxs bajaruvchilardir. Bajaruvchi bosh rolni o’ynaydi. U èng faol bo’yagani uchun xam jinoyatning ish" xavfli ishtirokchisi hisoblanadi.

Tashkilotchi — bu jinoyatga tayyorgarlik ko’rilishiga yoki jinoyat sodir ètishiga rahbarlik qilgan shaxs»dir. Tashkilotchi ba’zi hollarda ayni paytda bajaruvchi ham bo’ladi. Jinoyat tashkilotchisining harakatlari hamisha to’gridan-to’g’ri qasd qilish deb baholanadi.

Dalolatchi — qiziqtiruvchi yoki boshqa usul bilan jinoyatga undovchi shaxsdir. Fakat puxta o’ylangan faol harakatlar bilangina shaxsni jinoyatga og’dirish mumknn, shuning uchun ayrim hollarda (masalan, «O’zbekistoa Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish» deb nomlangan 159-moddada ko’zda tutilgani kabi) dalolatchilik alohida tamomlangan jinoyat sinashda ajratilishi mumkin.

Yordamchi — bu «jinoyat sodir ètilishiga o’z maslahatlari, ko’rsatmalari bilan, vositalar berish yoki tusiklarni yo’qotish bilan ko’maklashgan, shuningdek, jinoyatchi, jinoyat sodir ètish quroli, izlari va vositalarini yoxud jinoiy yo’l bilan qo’lga kiritilgan narsalarni yashirishga, shuningdek, bunday narsalarni olish va o’tkazish to’grisida oldindan va’da bergan shaxs»dir (Jinoyat Kodeksining 28-moddasi).

Ba’zan yordamchiliioshg yana bir turi ajratiladi — u xam bo’lsa jinoyatga yo’l qo’yishdir. Bu holat xizmat vazifasi bo’yicha jinoyatining oldini olishga majbur bo’lgan shaxs bu ishni qilmagani bilan bog’liq. Odatda yo’l qo’yib berganlik uchun jinoyat javobgarlikka fakat  mansabdor shaxslar tortiladi (masalan, «Mansabga sovuqqonlik bilan karash» deb nomlangan 207-modda).

Jinoyat huquqida jinoyatga daxldorlik tushunchasi ham mavjud. Jinoyatga tayyorgarlik ko’rilayotganligi, *jinoyat* sodir ètilayotganligi yoki jinoyat sodir èttanligi haqida aniq bila turib, oldindan va’da bermagan holda hokimiyat organlariga xabar qilmasligik, ushbu Kodeksning 241-moddasida nazarda tutilgan hollardagina javobgarlikka sabab bo’ladi. Biroq oldindan va’da bermagan holda jinoyat haqida xabar bermaganlik yoki jinoyatini yashirganlik uchun gumon qilinuvchi, aybla-nuvchi yoki sudlanuvchining yaqin qarindoshlari jivobgarlikka tortilmaydi (Jinoyat Kodeksining 31 moddasi).

**5. Qilmishning  jinoiyligini istisno qiladigan  holatlar.** Jinoyat  huquqida bir shaxsning o’zini himoya  qilish  yoki ijtimoiy  xavfli qilmishning oldini olish

maqsadida jinoyat sodir ètayotgan shaxsga jismoniy, ma'naviy yoki boshqa zarar etkazishi hodisalari ham nazarda tutiladi. Bunday harakatlarda rasmiy jihatdan jinoyat alomatlari sodir bo'lsada, agar ular jinoyatning asosiy alomati: — ijtimoiy xavflilikni ifodalamasa, muayyan vaziyatlarda ular jinoyat deb topilmasligi mumkin.

**Qonun chiqaruvchi bunday holatlarning ro'yxatinn beradi. Unga quyidagilar kiradi:**

- qilmishning kam ahamiyatliliga;
- zaruriy mudofaa;
- oxirgi zarurat;
- ijtimoiy xavfli qilmish sodir ètgan shaxsni ushlash vaqtida zarar etkazish;
- buyruq yoki boshqa vazifani ijro ètish;
- kasb yoki xo'jalik faoliyatiga oid asosli tavakkalchilik (Jinoyat Kodeksining 35-moddasi).

Jinoyat Kodeksining 36-moddasita binoan «garchi ushbu Kodeksda jinoyat sifatida nazarda tutgan qilmishning alomatlari mavjud bo'lsada, o'zining kam ahamiyatliligi tufayli ijtimoiy xavfli bo'lmagan harakat yoki harakatsizlik jinoyat deb topilmaydi".

Ijtimoiy xavfli tajovuzdan shaxsni va mudofalanuvchi yoki boshqa shaxslar huquqlarini himoya qilish (Jinoyat Kodeksining 37-moddasi) zaruriy mudofaa hisoblanadi. Bunda agar hujum mudofalanuvchi yoki boshqa shaxs hayoti uchun xavfli zo'ravonlik bilan bog'lanib ketgan bo'lsa yoki bunday zo'ravonlikni qo'llanishning bevosita taxdidi bilan qushilib ketgan bo'lsa, tajovuz qiluvchiga har qanday zarar keltirishga yo'l qo'yiladi.

«Tajovuzning xususiyatiyati va xavfliligi darajasiga butunlay muvofiq kelmaydigan mudofaa, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deb topiladi.

Boshqa shaxslarga yoki hokimiyat organlariga yordam so'rab murojaat qilish yoxud tajovuzdan o'zga yo'sinda qutulish imkoniyati bor-yo'qligidan qatiy nazar, zaruriy mudofaa huquqi shaxsga tegishlidir.

Zarar etkazgan maqsadida qasddan hujum qilish istagini qo'zg'atish zarur mudofaa deb topilmaydi.

Oxirgi zarurat (Jinoyat Kodeksining 38-moddasi) — bu shunday holatki, unda xavfni bartaraf ètish jarayonida yana ham katta zarar ko'rilishidan qochish maqsadida zarar keltirish zarurati vujudga keladi. Masalan, yong'in paytida olovning yoyilishini oldini olish maqsadida o't o'chiruvchilar yonmayotganmayotgan binolarni buzishadi. Oxirgi zarurat shuningdek, ichki ishlar organlari xodomlari o'z xizmat vazifalarini ado ètayotgan paytlarida ham yuzaga keladi.Chunonchi, xodim jinoyatchini ushlash vaqgida èng so'nggi zaruratdagina tabel qurolidan foydalanish huquqiga ègadir. Oxirga zarurat chegaralaridan chetga chiqqan zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib ketishning xuddi shunga o'xshash sharoitlarida ro'y beradi.

Jinoyat Kodeksining 39-moddasi «ijtimoiy xavfli qilmish sodir ètgan shaxsni hokimiyat organlariga topshirish maqsadida ushlash vaqtida unga zarar etkazish, agar uni ushlash zarur bo'lgan choralarning chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi, deb ko'rsatiladi.

Buyruq yoki boshqa vazifani ijro ètish (Jinoyat Kodeksining 40-moddasi). Ushbu moddaga muvofiq, «g'ayriqonuniy ravishda berilgan buyruq yoki farmoyishni yoxud mansab vazifasini bajarmagan yoki buzgan shaxs javobgarlikka tortilmaydi. Shaxsning amalda sodir ètgan qilmishida boshqa bir jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lsagina, u javobgarlikka tortiladi. . .

O'zbekiston Rsspublikasi Jinoyat Kodeksining 45-moddasiga binoan kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik qilib, shaxs va davlat manfatlariga zarar keltirilgan bo'lsa, bunday qilmish garchi jinoyat alomatlari mavjud bo'lsada, u javobgarlikka tortilmaydi. Ijtimoiy foydali natijaga èrishish maqsadida boshqa vositalarni qo'llanshning iloji bo'lmagan hollarda tavakkalchilik asosli deb topiladi.

"Tavakkalchilik odamlarning halok bo'lish xavfi, èkologiya halokati yoxud boshqacha og'ir oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligini bila turib qilingan bo'lsa, asosli deb topil maydi".

Umumiy xulosalar. Huquq tizimida jinoyat huquqi muhim rol o'ynaydi. Uning bunday roli o'z oldida turgan alohida muhim vazifalar bilan boshqalar. Bu vazifalarning èng muhimlari insoni va fuqaro haq-hukuqlari va èrkinliklarini, mulkni, ijtimoiy xavfsizlik va jamoat tartibini, konstituttsiyaviy tuzumni, atrof-muhitni jinoiy tajovuzlardan asrab-avaylash, shuningdek. Jinoyatlarning oldini olishdan iborat.

## Tayanch suzlar.

Jinoyat xukuki fani. Jinoyat belgilari. Jinoi javobgarlik asoslari. Jinoyat tarkibi. Jinoyat èlimentlari. Tugallamagan jinoyatlar. Kilmishning jinoiligini istesno kiladigan xolatlar. Jinoyatdan ishtirokchilari. Javobgarlik va jinoi jazo. Jazodan ozod kilish.

## Kaytarish uchun savollar.

1. Jinotyat xukukining umumiy va maxsus kismi tushunchasi predmeti va vazifasi.
2. Jinoyatni belgilari, jinoyat tarkibi va jinoyatni èlementalari tushunchasi.
3. Jinoiy javobgarlik va jazo xakida.
4. Jinoiy javobgarlik va jinoiy jazodan ozod kilish xakida.
5. Jinoyatda ishtirochilik tushunchasi va turlari.
6. Oddiy va murakab ishtirokchilik.
7. Tugalanmagan jinoyatlar.
8. Kilmishning jinoyiligini istesno kiladigan xolatlar.

## 9-mavzu. Halqaro huquq  asoslari

**Reja:**

1. Halqaro huquq-mustaqil huquqlar tizimi
2. Halqaro huquqning tarixiy turlari
3. Halqaro huquq sohalari. Halqaro ommaviy va halqaro xususiy huquq

### 1. Xalqaro huquq — mustaqil huquqlar tizimi

Xalqaro huquq g’oyat keng va turli tarmoqlarni o’z ichiga oluvchi alohida huquqlar tizimidir. Shu bilan byrga faqat normalar yig’indisi bo’libgina qolmay, ularning tizimi hamdir. Zero, bu normalar bir-biri bilan o’zaro uzviy aloqadadir. Xalqaro huquqning har bir normasi, mazmuni uning butun tizimi sifatida qarab chiqilmog’i kerak. Barcha milliy huquqiy tizimlarga xos bo’lgan huquqning asosiy xususiyatlari xalqaro huquqda ham xosdir. U davlat idora xarakteriga èga bo’lib, muayyan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar tizimidan iborat. Bu normalarga rioya qilish zarur holatlarda davlat majburiyati orqali ta’minlanadi.

Shu bilan birga xalqaro huquq milliy huquqda nisbatan o’ziga xos xususmyatlarga ham èga. Ular xalqaro huquq harakatida bo’lgan xalqaro sistemaiipg o’ziga xos chegaralari bilan belgilanadi. Bu chegaralar ayni paytda turli ijtimoiy sistemalarga mansub suveren davlatlarning mavjudligi, o’z sub’ekti uchun majbur bo’lgan huquq normalarini qabul qilishga qadar qonun chiqaruvchi organlartning yo’qligi, davlatlarda mavjud ijro va sudlov organlarining mavjud èmasligi bilan belgilanadi.

Demak, xalkaro huquq ichkm davlat huquqlarndan sub’ektiga, boshqarish predmetiga, normalarni shakllantirish va bu normalarga rioya qilinishni ta’minlovchi davlat majburiy organlarining faoliyatini za-
rur   sharoitlarda  amalga oshirish vositalariga    ko’ra  farq qiladi.

Ichki davlat huquqi sub’ektlari jismoniy, yuridik shaxslar va davlat organlaridan iborat. Xalqaro huquq sub’ektlari èsa asosan ustidan hech qanday hukmronlik bo’lmagan suveren davlatdan, o’z davlatlari (davlatlarning shakllanish bosqichini barpo ètish uchun kurashayotgan millatlar va xalqaro, davlatlararo tashkilotlar, ayrim davlatsifat uyushmalar  (èrkin shaharlar, vatika va boshqalar)dan iborat.

Xalqaro huquq ichki dzvlat huquqining boshqarish predmetidan farqli o’laroq, o’z harakpt predmetigè èga. Bu keng ma’nodagi davlatlararo munosabatlar, ya’ki xalqaro huquq tizimining barcha sub’ektlari o’rtasi-dagi munosabatlardir.

Xalqaro huquq aksariyat holatlarda davlat ichida yuzaga keluvchi munosabatlarga bu davlatning milliy huquqlari orqali muayyan ta’sir ko’rsatsada, bu munosabatlarni boshqarmaydi. Hozirgi paytda ichki davlat huquqining har bir tarmog’ida shu davlatning xalqaro shartnomalari normalarini ifodalovchi me’yorlar mavjud. Biroq davlatda ichki munosabatlar uning ichki huquqi bilan boshqariladi.

Agar xalqaro huquq normalari davlatnnng ichki daxliga ta'sir o'tkazadigan bo'lsa, bu shu davlatning huquqi mana shunday ta'sirini ko'zda tutishdan kelib chiqadi.

## 2.Xalqaro huquqning tarixiy turlari

Har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyada xalqaro huquqning o'ziga xos tarixiy turlari ishlab chiqiladi. Shuning uchun ibtidoiy jamiyat xalqaro huquqy o'rta asr jamiyati xalqaro huqukida, bu èsa hozirgi zamon xalqaro huquvqidan farq qiladi. Xalqaro huquqling rivojlanishi umuman jamiyat rivojiga mos ravishda ko'tarilish yo'lidan bordi. Biroq bu erda ham orqaga qo'yilgan qadamlar bo'ladi. Xalqaro huquq èng avvalo, o'z tarixiy turlarining inqilobiy yo'l bilan almashinishi orqali rivojlanadi. Zero, har bir keyingi bosqich o'z o'tmishdoshidan progressivroq èdi. Bu rivojlanish, shuningdek, har bir ijtimoiy-siyosiy formatsiya doirasida ham davom ètadi.

Tipiklashtirish nuqtai nazaridan qaraganda hozirgi zamon xalqaro huquq to'g'risidagi masala èng murakkab masaladir. Rivojlangan davlatlar va BMTning tinimsiz harakati va yangi mustaqil davlatlar, butun progressiv kuchlarning xalqaro huquqni demokratlashtirish uchun kurashi natijasida unda tub o'zgarishlar yuz beradi. Shuning uchun uni xalqaro huquqning yangi tarixiy turi deb hisoblashga hamma asoslar bor.

## 3. Halqaro huquq sohalari. Halqaro ommaviy va halqaro xususiy huquq.

Xalqaro ommaviy va xalqaro xususiy huquq O'zbek tilida va qator boshqa tillarda «Xalqaro xuquq» tushunchasi xalqaro ommaviy huquqni bildiradiki, undan xalqaro xususiy huquqni farqlab olmoq lozim. Xalkaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy hu-quqning uzviy aloqasi hech kim tomonidan rad ètilmaydi.

Bir qator taniqli mualliflarning ta'kidlashicha, xalqaro xususiy huquklar xalqaro huquqning bir qismi bo'lib xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquqlardan tarkib topadi (misol uchun S. B. Krilov—RF, M. Genovski — Bolgariya, Morens Kintana — Argentina).

Nihoyat, ayrim mualliflarning ta'kidlashicha, xalqaro xususiy huquq qisman xalqaro ommaviy huquq va qisman mnlliy huquqiy tizimlar normalarini o'z ichiga oladi (Xose de Ianguas Messiya — Ispaniya va bosh-
qalar).

Shu narsa ma'lumki, haqiqatdan ham xalqaro. xususiy huquq qisman turli davlatlarning milliy huquq tizimlariga, qisman xalqaro ommaviy Huquq xalqaro shartnomalarga taalluqli huquqiy normalar yig'indisidan iborat. Xalqaro xususiy huquq bir davlat huquq tizimi doirasidan chiquvchi xilma-xil milliy huquqiy tizimlar sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarni boshqarish predmetiga èga bo'lsa ham, uning o'zi alohida huquq tarmog'i èmas.

Bu degan so'z xalqaro xususiy huquq fanining xalqaro ommaviy huquq fani bilan aloqasi bundan buyon ham chuqurlashib boradi. Binobarin, xalqaro xususiy huquq bo'yicha mutaxassis xalqaro ommaviy huquk; asoslari bilan va aksincha,

xalqaro ommaviy huquq bo’yicha mutaxassis xalqaro xususiy huquq asoslari bilan tanish bo’lmog’i g’oyat muhimdir.

Xalqaro huquq tarixi davlat za huquq umumiy tarixining ajralmas qismi bo’lnb, davlatning dastlab vujudga kelishi bilan boshlangan. Ko’pgina tarixiy yodgorliklar èng qadim zamonlarda ham xalqaro huquq mavjud bo’lganligidan dalolat beradi.

Davlat va huquq umumiy tarixini xalqaro huquq. tarixiga qarama-qarshi qo’yish va uni qandaydir davriylashtirish to’g’risida gapirish metodologik jihatdan noto’g’ri bo’lur èdi. Xalqaro huquqning sobiq marks-cha-lenincha fani xalqaro huquqni davriylashtirish asosiga ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarni qo’yib, bunda: quldorlik davrining xalqaro huquqi, feodal jamiyatning xalqaro huquqi, burjua davrining xalqaro huquqi va kapitalistik ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyadan kommunistik formatsiyaga- o’tish davrining xalqaro huquqi tarixiy turlarini farqlaydi.

## Tayanch suzlar.

Xalkaro xukuk fani xakida. Xalkaro xukukning axamiyati va vazifasi tugrisida. Xalkaro xukukda bitimlar va diplomatiya tushunchasi. Xalkaro xususiy xukuk.

## Kaytarish uchun savollar.

1. Xalkaro xukuk tushunchasi xakida.
2. Xalkaro xukuk obektlari va funktsiyalari.
3. Xalkaro xukukiy meyorlar.
4. Xalkaro xukuk va milliy xukuk.
5. Xalkaro xukukda tizimlar.
6. Uzbekiston Respublikasi tashki siyosati.

## Foydalaniladigan adabiyotlar.

### Raxbariy adabiyot.


1. Krimov I.A. Inson, uning xukuk va èrkinliklari xamda manfaatlari – èng oliy kadriyat Toshkent. Uzbekiston 2005 y.
2. Prezident I.A.Karimovning «Bizning boshka maksadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash mamlakatni modernizatsiya va islox ètishdir» Toshkent – 2005 y.
3. Karimov I.A. Uzbekiston: milliy isteklol, iktisod, siyosat, mafkura T.1.-T., 1996 yil.
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan kolsin. T.2.-T., 1996 yil.
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoщ kabi mukaddasdir. T.3.-T., 1996 yil.
6. Karimov I.A. Bunyodkorlik yulidan. T.4.-T., 1996 yil.
7. Karimov I.A. Yangicha fikirlash va ishlash davr talabi. T.5.-T., 1997 yil.

8. Karimov I.A. Xavfsizlik va barkaror tarakkiyot yulida. T.6.-T., 1998 yil.
9. Karimov I.A. Biz kelajagimizni uz kulimiz bilan kuramiz. T.7.-T., 1999 yil.
10. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, èrkin va farovon xayot va pirovard maksadimiz. T.8.- T., 2000 yil.
11. Karimov I.A. Vatan ravnaki uchun xar birimiz ma'sulmiz. T.9.-T., 2001 yil.
12. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmok kerak. T.10.-T., 2002 yil.
13. Karimov I.A. Uzbekistonda demokratik uzgarishlarni yanada chukurlashtirish va fukarolaik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yunalishlari. # Uzbekiston ovozi. 31 avgust 2002 yil.

## Maxsus adabiyotlar.

1. Konstitutsiya yurtimizda yangi xayot, jamiyat barpo ètishdagi xukukiy poydevor Toshkent. Uzbekiston 2003 y.
2. Èrkin va faravon xayotni yuksak manaviyatsiz kurib bulmaydi. Toshkent. Uzbekiston 2006 y.
3. Uzbekistonda demokratik jamiyat kurish nazariyasi va amaliyoti. Toshkent 2005 y.
4. Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharxlar. T., 2001 yil.
5. Saidov A., Tadjixanov U., Odilkoriev X. Davlat va xukuk asoslari. T. «Shark», 2002 yil.
6. Islomov Z., Mirxamidov M., Xusanov O. Xukukshunoslik. Ma'ruzalik matni. T. 2000 yil.
7. Islomov Z., Mirxamidov M. Xukukshunoslik. T; «A.Kodiriy nomidagi xalk me'rosi». 2000 yil.
8. Xukukshunoslik. T., ŜPIUL. 2002 yil.
9. Islomov Z. Davlat va xukuk: umumnazariy masalalari. T. «Adolat» 2000 yil.
10. Xolmыminov K.T. Uzbekistonda xukukiy davlat kurish. T., 1998 yil.
11. Xolmыminov K.T. Davlat xukuk nazariyasi. T. 1998 yil.
12. Davlat va xukuk asoslari: Izoxli lugat. T., 1996 yil.
13. Davlat va xukuk nazariyasi. T., 2000 yil.
14. Islomov Z.I. Teoriya gosudarstva i prava. CH.1,2. T., 1997 god.
15. Nikitin A.F. 200 voprosov i otvetov po osnovam gosudarstva i prava M., 1998 god.
16. Grishina E.P. Osnova gosudarstva i prava. M., 1995 god.
17. Tadjixanov U., Saidov A. Xukukiy madaniyat nazariyasi. 2 tomli. T., 2001 yil.
18. Ma'muriy javobgarlik tugrisidagi kodeksga sharxlar. T., 2000 yil.
19. Alimov X.R. Ma'muriy xukuk. Darslik. T., 1995 yil.
20. Zokirov I.B. Fukarolik xukuki. Darslik. 1 kism. T., 1996 yil.
21. Zokirov I.B. Uzbekiston Respublikasining fukarolik xukuki. Darslik. 2 kism. T., 1999 yil.
22. Raxmonkulov X.R. Uzbeksiton Respublikasi fukarolik kodeksining 1 va 2-kismlariga umumiy tavsif va sharxlar. 2 jild. T., 1997-1999 yil.
23. Abdusalomov M. Uzbekiston Respublikasi fukarolik xukuki. Darslik. 2 kism. T., 1999 yil.

24. Fukarolik xukuki. Darslik. T., TDYUI «Adolat» 1999 yil.
25. Ègamberdiev È. Fukarolik protsessual xukukiy munosabatlar. T., «Adolat»20000 yil.
26. Raxmonkulov X.R. Oldi-sotdi shartnomasi. T., 2000 yil.
27. Raxmonkulov X.R. Xususiy mulk va uning daxlsizligi. T., 2000 yil.
28. Toshev B. Mualliflik xukuki. T., 1997 yil.
29. Topildiev V. Iste'molchilar xukukini ximoya kilish kursi buyicha ukuv-uslubiy кыllanma. T., 2003 yil.
30. Xusanov O. va boshkalar. Inson xukuklari. T., «Shark» 1997 yil.
31. Tursunov Y. Мещnat xukuki. Ukuv kullanma. T., 2000 yil.
32. Gasanov M. Uzbekiston Respublikasi мещnat shartnomasi. T., «Adolat» 1996 yil.
33. Voxidova A.A. Bank xukuki. T., 2000 yil.
34. Inoyatov A.A. Мещnat xukuki. T., «Iktisodiyot va xukuk dunyosi» 2002 yil.
35. Otaxojaev F. Nikox va uni xukukiy tartibga solinishi. T., «Uzbekiston» 2000 yil.
36. Uzbekiston Respublikasi Oila kodeksiga sharxlar. T., 2000 yil.
37. Xayitboev È.R. Èkologiya xukuki. Ukuv kullanma. T., 2001 yil.
38. Usmonov M.B. Er va konun. – Toshkent, «Adolat» 1994 yil.
39. Xolmыminov J.T. Èkologiya va konun. Toshkent, «Adolat» 2000 yil.
40. Kolbasov O.S. Mejdunarodno-pravovoe oxrana okrujayuщey sredы. M.1982 god.
41. Mualliflar jamoasi. Jinoyat xukuki. Darslik. T., «Adolat» 1998 yil.
42. Uzbekiston Respublikasi jinoyat kodeksiga shaxlar. T. 1997 yil.
43. Kurbonov R. Zaruriy mudofa. T., 1999 yil.
44. Saidov A. Xalkaro xukuk. 2 tomli. T., 2001 yil.
45. Tuzmuxamedov R. Xalkaro xukuk asoslari. T., «Iktisodiyot va xukuk dunyosi» 1998 yil.
46. Mazov V.A. Otvetstvennost v mejdunarodnom prave. M., 1979 god.
47. M.X. Rustamboev Jinoyat xukuki (maxsus qismi). T.2003 yil.

## Me'yoriy xujjatlar.

1. Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent «Uzbekiston» 2003 yil.
2. Uzbeksiton Respublikasining «Uzbekiston Respublikasining mustakilligi asoslari tugrisida»gi 1991 yil 31 avgust Konstitutsiyaviy konun. # Uzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi 1991 yil 11-son.
3. Uzbekiston Respublikasining «Referendum yakunlari xamda davlat xokimiyati tashkil ètilishining asosiy printsiplari tugrisida»gi 2002 yil 4 aprel Konutitutsiyaviy konun # Xalk suzi 2002 yil 5 aprel.
4. Uzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining «Uzbekiston Respublikasining Davlat mustakilligini è'lon kilish tugrisida»gi 1991 yil 31 avgust karori. # Uzbekiston Respublikasi Oliy kengashining axborotnomasi. 1991 yil 11-son.
5. Jamiyatda xukukiy madaniyatni yuksaltirish milliy davsturi. # Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1997 yil 9-son.

6. Uzbekiston Respublikasining «Ma’muriy javobgarlik tugrisida»gi kodeksi «Adolat» 2004 yil.
7. Uzbekston Respublikasining Fukarolik kodeksi. T., «Adolat» 2004 yil.
8. Uzbekiston Respublikasining fukarolik–protsessual kodeksi. T., «Adolat» 2004 yil.
9. Uzbekiston respublikasining mexnat kodeksi. T., «Adolat» 2004 yil.
10. Uzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. T., «Adolat»2004 yil.
11. Uzbekiston Respublikasining Jinoyat-protsussual kodeksi. T., «Adolat» 2004 yil.
12. Uzbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroya kodeksi. T., «Adolat» 2004 yil.
13. Uzbekiston Respublikasining Oila kodeksi. T., «Adolat» 1998 yil.
14. Uzbekiston Respublikasi solik kodeksi. T., «Ubekiston» 1999 yil.
15. Uzbekiston Respublikasining «Fukrolik tugsida»gi 1992 yil 2 iyul konuni. # Uzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1992 yil 9-son.
16. Uzbekiston Respublikasining «Ta’lim tugisida»gi 1997 yil 29 avgust konuni. # Uzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1997 yil 9-son.
17. Uzbekiston Respublikasining «Prokuratura tugrisida»gi 1992 yil 9 dekabr konuni. (yangi taщrir) # Uzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axbarotnomasi 1993 yil 1-son.
18. Uzbekiston Respublikasining «Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tugrisida»gi 1993 yil 6 may konuni. # Uzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1993 yil 5-son.
19. Uzbekiston Respublikasining «Fukarolarning uzini-uzi boshkarish organlari tugrisida»gi 1999 yil 14 aprel konuni. # Xalk suzi. 1999 yil 1 may.
20. Uzbekiston Respublikasining «Sudlar tugrisida»gi 1993 yil 2 sentyabr konuni. # Uzbekiston Respublikasining Oliy Kengashining axbarotnomasi. 1993 yil 10-son.
21. Uzbekiston Respublikasining «Uzbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi tugrisida»gi 1995 yil 30avgust konuni. # Xalk suzi 1995 yil 12 sentyabr.
22. Uzbekiston Respublikasining «Uzbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi tugrisida»gi 1991 yil 18 noyabr. (26.12.1997 yil., 19.08.1999 yildagi uzgarish va kushimchalari bilan) konuni.
23. Uzbekiston Respublikasining «Oliy Majlisiga saylov tugrisida»gi 1993 yil 28 dekabr (26.12.1997y. va 19.08.1999 yildagi uzgarish va kushimchalari bilan) konun.
24. Uzbekiston Respublikasining «Xalk deputatlari viloyat, tuman va shaxar kengashlariga saylov tugrisida»gi 1994 yil 5 may (26.12.1997 y., 25.12.1998 y. va 19.08.1999 yildagi uzgarish va kushimchalari bilan) konun.
25. Uzbekiston Respublikasining «Uzbekiston Respublikasi markaziy savlov komissiyasi tugrisida»gi 1998 yil 30 aprel (25.12.1998 y. va 19.08.1999 yildagi ызgarish va kushimchalar bilan) konuni.
26. Uzbekiston Respublikasi «Tabiatni muxofaza kilish tugrisida»gi T., 1992 yil.
27. Uzbekiston Respublikasi «Suv va suvdan foydalanish tugrisida»gi konuni. T., 1993 yil 6 may.

28. Uzbekiston Respublikasi «Urmon tugrisida»gi konuni. T. 1999 yil 15 aprel.
29. Uzbekiston Respublikasi «Davlat sanitariya nazorati tugrisida»gi konuni. (yangi taщrir) 1998 yil 30 aprel.
30. Uzbekiston Respublikasi «Maxalliy davlat xokimiyati tugrisida»gi konuni 1993 yil 2 sentyabr.
31. Uzbekiston Respublikasi «Xavo kodeksi». Uzbekistonning yangi konunlari. 9-son. T., 1993 yil.
32. Uzbekiston Respublikasi Xujalik protsessual kodeksi. T. «Adolat» 1997 yil.
33. Kodeks povedeniya doljnostnых lits po podderjaniyu provoporyadka. 17 dekabrya 1979 godu prinyata GA OON.
34. Odilkoriev X.T., Tulteev I.T. Ikki palatali parlament. T., 2005 yil.
35. Odilkoriev X.T. Ikki palatali parlament sharoitida konunchilik jarayoni. T., 2005 yil.
36. Uzbekistonda demokratik jamiyat kurish nazariyasi va amaliyoti. T., 2005 yil.
37. Xomiylar va shifokorlar yili. 2006 yil.
38. Uzbekiston Respublikasi Iste’molchilarining xukuklarini ximoya kilish tugrisidagi konunga sharx. T-2005 yil.

## MUNDARIJA

KIRISH .......................................................................................... 4
1. Davlat va huquq haqidagi asosiy tushunchalar .................................... 4
2. Ma’muriy huquq asoslari ................................................................... 12
3. Fuqarolik huquqi asoslari .................................................................. 18
4. Iste’molchilar xuquqini himoya qilish asoslari .................................. 22
5. Mehnat huquqi asoslari ...................................................................... 36
6. Oila huquqi asoslari ........................................................................... 44
7. Ѐkologiya huquqi asoslari ................................................................. 50
8. Jinoyat huquqi asoslari ...................................................................... 56
9. Xalkaro huquqi asoslari .................................................................... 60

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT AVTOMOBIL VA YO'LLAR INSTITUTI

ALLABERGENOV A.P.

# HUQUQSHUNOSLIK

Toshkent 2006 yil.